

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

MAKTABGACHA TA'LIM NAZARIYASI VA USLUBIYATI KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
Pedagogika-psixologiya fakulteti dekani
_____ prof.X.A.Meliyev
“ _____ ” _____ 201_ y.

5141700 – Maktabgacha ta'lim va bolalar sporti yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun

“MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MILLIY QADRIYATLAR
VOSITASIDA XULQ ATVORINI TARBIYALASH”
MAVZUSIDA BAJARILGAN

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: **Musurmanova Gulandom Artikbayevna**
Ilmiy rahbar: **dots.O.Jamoldinova**

Ishni himoyaga tavsiya etaman **dots.O.Jamoldinova** _____
(imzo)

BMI Maktabgacha ta'lim nazariyasi va uslubiyati
kafedrasi yig'ilishining qarori bilan (Qaror № __,
____.____.201__ y) himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: **dots.R.Abdurasulov** _____
(imzo)

Jizzax – 2012

I M U N D A R I J A:

KIRISH

I.BOB. MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARDA MILLIY QADRIYATLAR VOSITASIDA XULQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

- 1.1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq madaniyatini shakllantirish – muhim pedagogik muammo
- 1.2. O'zbek xalqining ma'naviy merosida xulq madaniyati tarbiyasi
- 1.3. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq madaniyatini shakllantirish holati.

II.BOB. MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARDA MILLIY QADRIYATLAR VOSITASIDA XULQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI VA YO'LLARI.

- 2.1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq madaniyatini shakllantirish yo'nalishlari va yo'llari.
- 2.2. Milliy qadriyatlar vositasida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini shakllantirish omillari, shakllari va turlari.
- 2.3. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida xulq madaniyatini shakllantirish natijalari.

XULOSA.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI....

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Ma'lumki, har bir millat, har bir xalq o'z hayot tarzini, kelajagini ajdodlarining tarixiy tajribasi asosida quradi, harch bir xalq begona qoliplar, begona andozalar asosida emin-erkin yashab, taraqqiy eta olmaydi. "Odamzod birovning bo'yiga qarab o'ziga tun bichmaydi", deydi yurtboshimiz. Har bir honadonning o'z tartib-qoildari bo'lganidek, har bir yurt hayotini tashkil etishning ham o'z andoza o'lchovlari, qonun-qoidalar bo'ladi. Ular o'sha yurtning tabiiy –jug'rofiy shart-sharoiti, tarixiy tajribasi, milliy fe'l-atvori bilan bog'liq tarzda shakllanadi.

Qadriyatlar tizimida millat, unga xos belgilar, jihatlar, xususiyatlar, ularning vujudga kelish jarayonlariga muayyan darajada ta'sir ko'rsatga xudud va u bilan bog'liq tuyg'ular, millatning o'tmishi, tarixi, madaniyati, u yaratgan madaniy boyliklar va ma'naviy meros bilan bog'liq qadriyatlar ham muhim o'rinni egallaydi. Bu qadriyatlar biror millat kishilari uchun milliy bo'lib hisoblanadi. Ular alohida shaxs qadriyatlarini umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lovchi xalqalardan biridir. Muayyan kishi yoki shaxs umuminsoniy qadriyatlarni anglashda, o'z faoliyatini ushbu qadriyatlar mezoniga moslashtirishda milliy qadriyatlarni hisobga oladi, ular bilan bog'liq jihatlarni ham nazarda tutadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi: Dunyodagi xalqlar orasida aynan shu millatning borligi, mavjudligi, betakrorligi "Kuhna tarix shodasida bitta marjon" (E. Vohidov) sifatida zohirligi har qanday kishi uchun ahamiyatga ega bo'lishi tabiiy. Millat har qanday milliy qadriyatning obyekti, milliy qadriyatlar tizimi tayanadigan ijtimoiy asosdir. "Millat" atamasi qadriyat obyekti sifatida tushunilganida, bir-biri bilan qon qardosh xalqlarga nisbatan ishlatiladigan "turkiy xalqlar", "slovyanlar", "roman xalqlari" kabilarga umummilliylik darajasi mos keladi.

Millat bir tomondan, o'zining qadriyatlarini mutassil vujudga keltirib turadi, o'tmishdan kelajakka rivojlanish jarayonida ularni doimiy takomillatirib, yangi-yangi qirralarni shakllantirib turadi, ikkinchi tomondan esa, uning o'zi ham mavjud qadriyatlar tizimi ta'miri ostida o'zgarib va rivojlanib boradi. Millat –o'zining qadriyatlarini vujudga keltirib, ularning yangi-yangi qarralarini va jihatlarini sayqallashtirib, taraqqiyot jarayonida tamokillashtirib turio'i ma'nosida o'z qadriyatlarining haqiqiy egasi, makon va zamondagi ilgarilama xarakatdan iborat o'zgarishlar jarayonida ularni o'tmishdan kelajakka tomon yetkazib boradigan eng asosiy obyektidir.

Millatni milliy qadriyatlarning obyeksi va subyekti sifatida tushunish, u bilan bog'liq milliy qadriyatlar tizimini ilmiy tahlil qilish, millatning o'zini ijtimoiy qadriyat sifatida qarash ikmonini beradi. Bu esa milliy qadriyatlarning namoyon bo'lishi, tarixiy rivojlanish jarayonida o'tmishdan kelajakka tomon xarakatini taxlil qilishga imkon yaratadi. Milliy qadriyatlar:

- kishilarning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy birligini ta'minlaydigan etnik makonda shakllanadi, rang-barang tarzda, tarli shakllarda namoyon bo'ladi, kishilarning ongiga, hayot tarziga o'ziga xos tarzda ta'sir qiladi:

- kishilarning o'zaro munosabalarida, ijtimoiy faoliyatlarida ko'zga tashlanib turadi hamda ana shu munosabat, faoliyat, maqsad, ehtiyoj va intilishlar uchun ma'naviy asos bo'ladi;

- moddiy, ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarda muayyan natija sifatida yuzaga kelishlari, kishilar uchun zaruriyat sifatida o'ziga xos ahamiyat kasb etishlari, ularga foyda keltirishlari xam mumkin;

- ijtimoiy rivojlanish jarayonida o'zgarib, takomillashib, rang-barang jihatlar avloddan-avlodga o'tadi, meros qoladi.

Milliy qadriyatlar va ularning aloqadorligini ifodasi bo'lgan qadriyatlar tizimi, millatning o'zi bilan birga tarix silsilalari, zamona zayillari, turli ijtimoiy va siyosiy jarayonlar orasidan o'tmishdan kelajakka tomon o'tib turadi. Bu qadriyatlar ko'proq millatning etnik xususiyatlari va etnik makoni bilan bog'liq. Xalqning ijtimoiy taraqqiyoti esa ularning milliy etnik qadriyatlari ravnaqi bilan o'zviy aloqadorlikda davom etadi. Har bir xalq yoki millat, o'ziga xos rang-barang qadriyatlarni takomillashtirib borishi natidasida, umumisoniy qadriyatlarni shakllantirib, uning qirralarini rivojlantirib boradi.

Milliy qadriyatlar faqat qadriyatga ko'ra faqat tor doirada saqlanib qolmaydi, balki, ravnaq topib turmush jarayonida muttasil yangilanib, boshqa xalqlar qadriyatlarini yutuqlari bilan boyib boradi.

Har bir el, elat, urug' yoki xalqning urf-odatlarida, ularni bajarishdagi faoliyatida o'ziga xoslik bo'ladi. Agar ana shu o'ziga xoslikni o'sha joyning axolisi qadrlasa, ular hayotining bir qismiga aylangan bo'lsa buning yomon joyi yo'q. Bunday o'ziga xoslik bilan bog'liq qadriyatlarni boshqa joyda, boshqacha tarzda yashayotgan kishilarning tarozusi bilan ulchash yoki u maqsadda boshqalarning hakam bo'lishi maqsadga muvofiq emas. Umuminsoniylik tuyg'usi faqat o'z xalqi qadriyatini ardoqlash, ko'z-ko'z qilish va

boshqalar orasiga yoyish uchun intilishga asoslanmaydi, balki har bir xalq, elat, urug' qadriyatlarini qanday xolatda bo'lsa, shundayligicha qabul qilib, ularni xurmat qilishdan boshlanadi.

Har bir millatning o'zi qadrlaydigan madaniyati, tili, an'analari, urf-odatlarini, marosimlari va odob normalari bor. Dunyoda aholisi son jihatdan ko'p yoki kamroq xalq bo'lishi mumkin, ammo madaniy va ma'naviy sohada bir –biridan kam yoki ortiq millat yo'q. Ayni paytda sotqin millat ham, qoralash huquqiga ega bo'lgan millat ham yo'q. Ammo har bir millatning o'ziga xos o'tmishi, madaniy va ma'naviy qadriyatlari, milliy qahramonliklari, boshqa millatning o'ziga millat faolliyatini baholovchi hakam bo'lishga haqqi yo'q. Biror bir ta'limot, davlat shakli yoki yashash usulini qabul qila olmaganligi uchun hych qachon yoki bu millat aybdor emas. Shu ma'noda umuminsoniylik bir millat qadriyatlarini butun olamga yoyish yo'li bilan emas, balki hamma millat va elatlarning qadriyatlarini asrab-avaylash, murosallashtirish, tarix tarozusi saqlab qoladigan qadriyatlarni xurmat qilish va olamdagi milliy rang-baranglik bilan uzviy aloqada ekanligini anglash so'li bilan boyib boradi.

Milliy qadriyalar millatning tabiiy-tarixiy rivoji, ijtimoiy turmushi, yashash tarzi, o'tmishi, kelajagi, madaniyati, ma'naviyati, urf-odatlarini, an'analari, tili u vujudga kelgan xudud va boshqalar bilan uzviy bog'langan. Ular xilma –xil shakllardan, bir-biri bilan uzviy aloqada namoyon bo'ladi, o'ziga xos milliy qadriyatlar tizimini tashkil qiladi. Bu tizimda tabiiy-tarixiy birlikni ta'minlovchi qadriyatlar – qon-qardoshlik, madaniy ma'naviy yaqinlik, o'tmish va ma'naviy meros, ona yurt tuyg'usi va boshqalar nisbatan barqaror bo'lib xisoblanadi. Ular milliy qadriyatlar tizimida tarixiy jarayonlar davomida tez o'zgarib turadigan ba'zi kundalik yoki amaliy ahamiyatga molik bo'lgan qadriyatlarga nisbatan, milliy qadriyatlar tizimi, o'z o'rnini va ahamiyatini uzoqroq saqlab qolishi bilan bog'liq xususiyatni ifodalaydi. Shu sababli biz bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini **“Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq atvorini tarbiyalash”** deb tanladik

Mavzuning maqsadi: Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq atvorini tarbiyalash, yaxlit tizimi va shart-sharoitlarini aniqlash hamda xulq atvorni shakllantirish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti: Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq atvorini tarbiyalash jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq atvorini tarbiyalashning mazmuni, tamoyillari, shakl, metod va vositalari.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq atvorini tarbiyalash muammosini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o'rganish hamda pedagogik nuqtai nazardan asoslash.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq atvorini tarbiyalashning o'ziga xos pedagogik shart-sharoitlari va xususiyatlarini o'rganish.

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq atvorini tarbiyalashning mazmuni, samarali shakl, metod va vositalarini aniqlash orqali uning yaxlit tizimini yaratish.

4. Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq atvorini tarbiyalanganlik mezonlarini ishlab chiqish.

5. Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq atvorini tarbiyalashning samaradorlik darajasini tajriba-sinov asosida aniqlash hamda yuqori samaradorlikka erishish imkonini beruvchi ilmiy-metodik tavsiyalar tizimini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy farazi: Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq atvorini tarbiyalashda yuqori pedagogik samaradorlikni ta'minlash mumkin, agarda:

- Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq atvorini tarbiyalash jarayonining pedagogik mazmuni nazariy jihatdan ochilsa, uning amaliyotdagi mavjud ahvoli konstruktiv tahlil qilinsa;

- Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq atvorini tarbiyalash faoliyatini samarali boshqarishga oid xorijiy va mahalliy tajribalar o'rganilsa, umumlashtirilsa

- Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq atvorini tarbiyalashning yaxlit pedagogik andozasi yaratilsa va amaliy tatbiq etilsa;
- Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq atvorini tarbiyalash samaradorligini ta'minlashga hizmat qiluvchi ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqilsa va ular amaliyotga keng tatbiq etilsa xulq atvorni shakllantirishning pedagogik jarayoni samarali kechadi.

Tadqiqot metodlari: BMI mavzusiga oid umumiy pedagogika, psixologiya, tarix, falsafa, huquqshunoslik, siyosiy fanlarga oid ilmiy-nazariy, metodik adabiyotlarni o'rganish va tahlil etish, pedagogik kuzatish, pedagogik tajriba-sinov, sosiometrik (suhbat, so'rovnoma, intervyu, test), modellashtirish, natijalarni umumlashtirish, matematik-statistik metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida bildirilgan qarashlar, hukumat tomonidan ta'lim-tarbiya tizimini boshqarish borasida qabul qilingan huquqiy-me'yoriy xujjatlar, shuningdek tanlangan yo'nalishda ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan pedagog olimlarning nazariy qarashlari va zamonaviy ilg'or ta'limotlar tadqiqotning metodologik asosi bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq atvorini tarbiyalash muammosi ilk bor pedagogik muammo sifatida ilmiy tadqiq etildi;
- Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq atvorini tarbiyalash mazmuni ilmiy asoslandi, uning uning milliy mentalitetga xos bo'lgan xususiyatlari, umumbashariy va milliy mezonlari va ijtimoiy ahamiyati o'rganildi;
- Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq atvorini tarbiyalashning yaxlit pedagogik andozasi yaratildi;
- Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq atvorini tarbiyalashning samarali shakl, metod va vositalari aniqlandi;

- Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq atvorini tarbiyalashning samaradorlik darajasini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-nazariy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi: kirish, 2 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, hajmi betni tashkil qiladi.

I.BOB. MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARDA MILLIY QADRIYATLAR VOSITASIDA XULQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

1.1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq madaniyatini shakllantirish – muhim pedagogik muammo

Prezident I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasidagi "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" mavzuidagi ma'ruzasida "Biz mamlakatimiz istiqboli yosh yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib, voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotga nechog'lik faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak", - deb alohida ta'kidlaydi [12.23-b]. Mazkur ko'rsatma maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini shakllantirishga aynan bog'liq. Madaniyat – jamiyat va insoniyat taraqqiyotining muayyan darajasi bo'lib, kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy qadriyatlarda o'z ifodasini topadi. Madaniyat – moddiy va ma'naviy darajasi ko'rsatgichlari. Shu bilan birga inson faoliyati yoki turmushining o'ziga xos sohalarini ham belgilaydi. Buni mehnat madaniyati, badiiy madaniyat, turmush madaniyati, ma'naviy madaniyat va boshqa madaniyatlarda ko'rish mumkin. Lekin madaniyat tor ma'noda kishilarning faqat ma'naviy hayoti sohasiga nisbatan ham qo'llaniladi. Ma'naviy madaniyatga ong, bilim, axloq, ta'lim-tarbiya, huquq, falsafa, xulq-odob, fan, san'at, adabiyot kabilar kiradi. Juda ko'p olimlar, shu bilan birga lug'atlar va ma'lumotnomalarda madaniyat, xulq-odob ta'rifida ularning har biri mazmuni va mohiyatini ajratib yuboradilar. Ular birgalikda talqin etiladi. Lekin tushunchalarning asl mohiyati tahlil etilsa, ularning har biri o'z mazmuniga ega. Masalan, "axloqiy madaniyat – insonni ma'naviy va madaniy jihatdan kamolotga yetkazuvchi jarayon" deb ta'rif beradi, tadqiqotchi U.Mahkamov. Vaholanki, axloqiy madaniyat madaniy va ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lib, u kishilarning har bir jamiyatga xos xulq me'yorlari majmui sanaladi. Xulq-odob esa kishilarning tabiati, fe'l-atvori majmui bo'lib, xulq-odob madaniyati – shaxsning jamiyat talablariga ko'ra turmushda, kishilar bilan muomala – munosabatida, faoliyatning turli ko'rinishlarida ifodalangan odob me'yorlariga rioya etish bo'lib hisoblanadi.

Xulq madaniyati shundan iboratki, jamiyatda inson alohida kishilarga va o'z-o'ziga munosabatini ma'lum g'oyaviy, ma'naviy e'tiqodlarda namoyon bo'lgan xatti-harakatlarda va faoliyatida ifodalaydi.

Kishilarda kuzatiladigan xatti-harakatlar, faoliyatlar majmuining jamiyat hamda xulq-atvor qonun-qoidalariga talablariga javob bera oladigan darajasi uning madaniyatlilik belgisi sanaladi.

Madaniyat odatda shartli ravishda ichki va tashqi madaniyatga bo'linadi. Ichki madaniyat – insonning botiniy dunyosi, ichki ma'naviy qiyofasi. Inson aqlan va ahloqan rivojlanagan, dunyoqarashi keng, o'z xatti-harakatlarini ongli boshqara oladigan, erkin, o'z qadr-qimmatini saqlay biladigan darajada tarbiyalangan bo'ladi. **(1-jadval)**

Tashqi madaniyat – jamiyatda qabul qilingan axloq qoidalariga, odob me'yorlari bo'lib, kishilar bilan xushmuomala bo'lish, ijtimoiy hayotda pok bo'lish hisoblanadi. Har bir kishida ana shu ichki va tashqi madaniyatning uyg'un bo'lishi, rivojlanishi kerak. O'zida ichki va tashqi madaniyatni uyg'unlashtira olgan kishigina haqiqiy madaniyatli sanaladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq-odob madaniyatini shakllantirishga kelsak, bu “Bolalar bog'chasida tarbiya” dasturida barcha yosh guruhlari bo'yicha belgilab qo'yilgan. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini tarkib toptirish jarayoni topshiriqlarni ongli bajarish, kun tartibini, o'yin va boshqa turli mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etish, bolalar faoliyatini, bilishga qiziqishlarini faollashtirish, o'zaro munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishda namoyon bo'ladi.

Bu jarayon maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda eng muhimi gigiyenik ko'nikma va malakalarni shakllantirish, faoliyatning turli ko'rinishlarida va har xil vaziyatlarda, o'zaro munosabatlarda madaniy ko'nikma va malakalar hosil qilish, axloqiy ong va axloqiy his-tuyg'ularning ma'lum elementlarini tarbiyalashdan iborat bo'lib, atroflam bilan tanishish orqali shakllanib boradi.

Xulq madaniyati odob qoidalariga to'g'ridan-to'g'ri rioya etish emas, balki ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ular, tasavvurlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bevosita ularni mustahkamlab boradi. chunki maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning psixologik-fiziologik xususiyatlari xulq madaniyatini shakllantirish uchun qulay imkoniyatni vujudga keltiradi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar o'ta idrokliligi, fahmi tezligi, zukkoligi bilan ajralib turadi. Bu xususiyat ularning asab tizimining egiluvchanligi, atrofdagi voqea-hodisalarga faol munosabatda bo'lish qobiliyati, idrok

qiladigan narsalarga his-tuyg'usi, diqqat- e'tibori, taqlid qilishi va tasavvur etishi sabab bo'ladi. Lekin ularda hali hayot tajribasi to'liq shakllanmagan bo'ladi. Shunga ko'ra tarbiyachi, ota-ona va boshqa katta yoshlilar bolada muomala ehtiyojini ijtimoiy ehtiyojga aylantirishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu tarbiyaviy ta'sir etish pedagogik jihatdan to'g'ri bo'lib, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada xulq madaniyatini shakllantirishda zarur deb hisoblanadi.

Lekin bularning barchasi quyidagi shart-sharoitlarda amalga oshishi maqsadga muvofiq:

- bolalar muassasasida katta yoshlilar o'rtasida o'zaro sog'lom munosabatni vujudga keltirish;
- tarbiyachi-murabbiylar bilan ota-onalar o'rtasida o'zaro munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish;
- katta yoshlilar bilan bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ta'sir doirasini faollashtirish;
- guruhlarda, mashg'ulotlarda kun tartibini qat'iy yo'lga qo'yish;
- guruhlarni mashg'ulotlar uchun zarur fshyolar bilan ta'minlash;
- bolalarda o'z atrofini o'rab olgan muhitga nisbatan ijobiy his-tuyg'uni vujudga keltirish.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini tarkib toptirishni an'anaviy tarzda quyidagi muhim tarkibiy qismlarga bo'lish mumkin:

1. Faoliyat madaniyati
2. Muomala madaniyati
3. Gigiyenik madaniyat ko'nikma va malakalari.

Faoliyat madaniyati bolalarning mashg'ulotlarda, o'yin jarayonida, mehnat topshiriqlarini bajarish davomida tarkib topa boradi.

Faoliyat madaniyatini shakllantirish – bu bola mehnati, o'yin va mashg'ulotlar paytida o'z joyini tartibli va saranjom-sarishta saqlash, boshlagan ishini oxiriga yetkazish, o'yinchoqlarini va o'ziga tegishli boshqa narsalarni tartibli saqlash va boshqalardan iborat.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar o'z faoliyatlarini boshqara olishga odatlana boradilar. Xulqida o'zgarishlar paydo bo'ladi. Bu ularning o'yin, mehnat, mashg'ulotlar uchun kerakli narsalarni tayyorlay olish, mashg'ulotlarga qiziqish bilan qatnashish kabi faoliyatida shakllana boradi. Faoliyat madaniyatning mezoni sifatida maktabgacha

tarbiya yoshidagi bolalarning ixtiyoriy mehnat qilishiga ishtiyoqi, bajarayotgan ishiga qiziqishi, uning mohiyatini tushunish, mustaqil va faol harakat qilish, o'z faoliyati natijasiga befarq qaramasligi, mehnat faoliyatida o'rtoqlariga va boshqalarga o'zaro hamkorlik kabi faoliyatni olishimiz mumkin.

Muomala madaniyatiga bolaning o'z tengdoshlari va katta yoshlilar bilan munosabat qoidalari va me'yorlariga rioya etishi, ya'ni xushmuomalalik, o'zaro hurmat, til boyligining rivojlana borishi, jamoat joylarida va ko'pchilik orasida, turmush sharoitida o'zini tutu bilish qoidalari kiradi. Bu xislatlar bolada hali hayotining dastlabki kunlaridan boshlab o'rgatilib borilsa, 5-6 yoshlarda esa bolani o'z hissiyotlarini boshqara olishi, o'z atrofdagilariga hurmat-ehtirom bilan qarashni shakllantirish, undagi tantiqlik, xudbinlik, shaxsiyatparastlik xislatlarining oldini olishga yordam beradi va muomala madaniyati tarkib topa boshlaydi.

Muomala madaniyatining shakllanishida, albatta, nutq sofliigi va nutq madaniyati muhim rol o'ynaydi.

Muomala madaniyati bolada o'trog'ining so'zini diqqat bilan tinglashi, nutqda samimiyligi, yumshoqligi, so'zlashayotganda tinch, xotirjamlikni saqlashi, "Siz" deb murojaat etishi va boshqalarda namoyon bo'ladi.

Muomala madaniyatini garchi, tarbiyachining ta'lim-tarbiyaga oid mashg'ulotlarda, puxta tuzilgan muloqotlar jaryonida tarkib toptirish birmuncha qulayroq bo'lsa ham odatda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning mustaqil faoliyati jarayonida, kundalik turmush sharoitida samaraliroq kechadi. Lekin bunday holatlarda ham tarbiyachi, ota-ona maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning og'ib ketmasligiga e'tibor berishi kerak.

Bolalarda madaniy-gigiyenik malakalar tarkib topishining samarali davri maktabgacha davr bo'lib hisoblanadi. Tozalikka rioya etish, kiyim-bosh, tanasini toza tutish, faqat gigiyena talablariga rioya etish uchungina emas, balki xulq-odob qoidalariga ham rioya etilishi sanaladi. Bola o'z tashqi qiyofasi bilan ham boshqalarga yaxshi taassurot qoldirishi, xulq madaniyatining muhim talablaridan ekanligini anglab yetishi zarur.

Tarbiyachilar va ota-onalar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni kiyinish madaniyati, tozalikka va ovqatlanish madaniyatiga rioya etishi inson uchun hamma vaqt, umrining oxirigacha zarur ehtiyojga aylanishiga erishishlari kerak.

Albatta, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini shakllantirish bog'chalarda o'z-o'zidan amalga oshmaydi. Bunda biz, eng avvalo, o'zbek xalqining o'ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi milliy qadriyatlardan samarali foydalanish, bolalarning yosh xususiyati, oilalaridagi muhit hamda psixologik va pedagogik talablardan kelib chiqqan holda amalga oshirishimiz maqsadga muvofiq.

Qadriyat o'zi nima? Eng avvalo, shuni aytish joiz, qadriyatlar hayotda odamlar qadrlaydigan narsalar. Bular atrofimizdagi predmetlar, voqyea va hodisalar bo'lib, odamlarning kundalik hayotiy ehtiyojlari va talablarini qondira oladigan yoki qondirishi mumkin bo'lgan narsalar.

Qadriyatlar xilma-xil bo'lib, ularni aniqlash yo'li – kishilik jamiyati a'zolarining amaliy faoliyatini, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratish jarayonida tabiat va jamiyat predmetlari, voqyea va hodisalar mazmuni, ularning harakati, taraqqiyoti tendensiyalarini bilish, baholash jarayoni.

Qadriyatlar o'zining mazmuni, ahamiyati, xususiyati jihatidan:

1) **moddiy**; 2) **ma'naviy**; 3) **ijtimoiy-siyosiy** qadriyatlarga bo'linadi. Ular hayotda milliy va umuminsoniy shaklda mavjud bo'lib, moddiy qadriyatlar kishilarning moddiy ehtiyojlarini qondiradi. Ularning rivojlanish darajasi, jamiyat a'zolarining moddiy farovonligi, mo'l-ko'lligi, eng avvalo, jamiyatning moddiy boyliklar ishlab chiqarish usulining, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasiga, qolaversa, ijtimoiy ishdab chiqarish usulining ijtimoiy-siyosiy xususiyatlariga bog'liq bo'ladi.

Qadriyatlarning yana bitta xususiyati – jamiyat ijtimoiy-siyosiy tizimi va siyosiy-huquqiy, g'oyaviy-nazariy qarashlari.

Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy qadriyatlari haqida gap ketganda, jamiyatning ijtimoiy idealini amalga oshirish uchun kurash: ijtimoiy adolat, tinchlik uchun kurash, erkinlik, ozodlik, vatanparvarlik, milliy mustaqillik uchun kurash inson va insoniyat jamiyatining oliy qadriyati deb baholanadi.

Keyingi yillarda olimlarimiz milliy qadriyatlar, ularning mohiyati, ta'lim-tarbiyadagi o'rniga ahamiyat berib, bir qator tadqiqot ishlari olib borishdilar. Masalan, J.T.Tulenov, O.Musurmonova, N.Sh.Almatov, M.Inomova larning ilmiy tadqiqot ishlarida qadriyatlar, ularning mohiyati, turiga ta'rif berilgan.

Haqiqatan ham, qadriyat – bu tabiat va ijtimoiy hayotda namoyon bo'ladigan, kishilar qadrlaydigan va ular uchun manfaatli, foydali, ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan, tabiiy-individual va ijtimoiy ehtiyojni qondirishga xizmat qiladigan moddiy-iqtisodiy,

madaniy-ma'naviy, mafkuraviy omillar yig'indisi, deb ta'rif beradi tadqiqotchi N.Sh.Almatov .

Qadriyatlar tushunchasiga J.Tulenov, N.Sh.Almatov ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan, O.Musurmonova, M.Inomovalar pedagogik nuqtai nazardan ta'rif beradilar va uning tarbiyalanuvchi hamda tarbiyalovchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida paydo bo'lib, obyekt faoliyatiga ta'sir etishini ta'kidlaydilar.

Qadriyatlar bevosita milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'linadi.

Milliy qadriyatlar har bir xalqning tili, madaniyati, milliy o'ziga xosligi, xalqning turmush va oila munosabatlarida amal qiladigan urf-odati va an'analarning bir-biridan farqlab turadigan o'ziga xos milliy xususiyatlari bilan ajralib turadi. O'zbek xalqi o'zining boy tili, musiqa va qo'shiqchilik san'ati, me'morchilik, xalq amaliy san'ati, oilaviy marosimlar – beshik to'y, tushov kesish, qiz uzatish, kelin uzatish kabilar buyuk mutafakkirlarimizning boy ilmiy, ijodiy merosi kabi o'lmas qadriyatlarga ega.

Umuminsoniy qadriyatlarga esa, tinchlik, mehnat, fan, adabiyot, san'at, madaniyat va shu kabilar bilan bog'liq umumbashariy qimmatga ega bo'lgan an'analar, urf-odat, udum, rasm-rusum va marosimlar kiradi.

Hozirgi davrda ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning jamiyat taraqqiyotida ustuvor yo'nalish kasb etayotganligi bilan ma'naviy qadriyatlardan foydalanish dolzarb bo'lib qolmoqda.

Milliy qadriyatlar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning kundalik faoliyatida odat, ehtiyojga aylangan taqdirdagina uning ma'naviy shakllanishiga ta'sir etadi.

Ayniqsa, maktabgacha tarbiya yoshidagi bola xulqiga ta'sir etuvchi insonparvarlik, ma'rifatparvarlik, mehr-muhabbat, poklik, katta yoshlilarga, ota-onalarga hurmat, mehr-muhabbat, xushmuomalalik, do'stlik, saxiylik, shirinso'zlik, kabi xislatlarni tarkib toptiruvchi axloqiy mazmundagi qadriyatlar bog'chada, oilada, jamoat joylarida samarali bo'ladi.

Qadriyatlar ijtimoiy hayotimizda shaxsiy, oilaviy qadriyatlar tarzida namoyon bo'ladi.

Shaxsiy qadriyatlar deganda, faqat biron-bir shaxsning tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish vositasi bo'lgan zaruriy, foydali, yoqimli moddiy va ma'naviy predmetlar, voqyea va hodisalar, g'oyaviy-axloqiy qarashlar, badiiy-estetik tamoyillar va ideallar tushuniladi.

Oilaviy qadriyat va oilaning barcha a'zolari uchun u yoki bu darajada umumiy bo'lgan, ularning real yoki orzu-umidga asoslangan hayotiy ehtiyojlarini qondirish vositalari, faqat shu oila a'zolari uchun qimmatli moddiy predmetlar, ijtimoiy-siyosiy g'oyalar bo'lib hisoblanadi. Qadriyatlarimizni tiklash va yosh avlod tarbiyasiga singdirish o'zbek xalqi an'analari orqali olib boriladi. An'ana avloddan-avlodga o'tib boradigan va jamoatchilik fikri bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy axloq va munosabatlarning umumlashgan me'yor va tamoyillaridir. Har bir an'ana shakllanishida obyektiv zaruriyatlar – xalqning yashash sharoiti, madaniy ishlab chiqarishi va ma'naviy madaniyati muhim ahamiyatga ega. Markaziy Osiyo xalqlarida, jumladan, o'zbek xalqida qadimdan tarkib topgan an'analar jumlasiga mehnatga muhabbat, Vatanga sadoqat, insonlarga hurmat, mehr-muhabbat, hashar, bir-biriga ko'maklashish va boshqalarni kiritish mumkin.

Ilg'or an'analarrivojining yuqori bosqichi mustaqil O'zbekiston milliyligini tiklash, o'z urf-odatlarini, udumlarini qadrlash an'anasidir.

O'zbek xalqiga xos bo'lgan ota-onani hurmat qilish va ularga yaxshi munosabatda bo'lish, jamoat joylarda o'zini tuta bilish, mehnatsevarlik, halollik, rostgo'ylik, andishalilik, shirinso'zlik o'zbek xalqining ajoyib odob-axloq, ma'naviy xulq jumlasiga kiradi. Shuning uchun milliy qadriyatlarimiz sanaladigan ma'naviy madaniyat manbalarini o'rganish, ularda olg'a surilgan g'oyalarga amal qilish, kelgusi avlodlarga qadriyat sifatida o'tkazish jamiyatning, qolaversa, har bir kishining asosiy burchi. Qadriyatlardan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar xulq madaniyati tarbiyasida foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Chunki bu davrda bolalar xulqi va irodasi shakllana boradi. Masalan, ular ijtimoiy faydali faoliyati jarayonida o'z guruhida tartib-qaidaga rioya etish, tengdoshlariga yordam berish, o'yin va mashg'ulotlarda turli narsalar yasashda jiddiy munosabatda bo'lishi orqali xulq-odob qoidalariga rioya etish ko'nikma va malakalari shakllana boradi. Bunga, albatta, oila va bog'chadagi muhit va milliy qadriyatlar katta turtki bo'ladi.

Malakalar takomillasha borib, ong ko'nikmalariga aylanadi. Masalan, ertalabki gimnastika mashqlarin uyida ham bajarishi, o'z o'yinchoqlarini va kiyimlarini, o'z xonasini tartibli saqlashi, kattalar va o'z tengdoshlari bilan xushmuomalada bo'lishi kabilar kundalik ehtiyojlar vositasida ko'nikma hosil qilib boradi. Bunda bolalar, albatta, o'z xatti-harakatlarini ongli ravishda tushunib, to'g'ri xulosalar chiqarishi va ijobiy natidaga olib kelishi kerak.

Bolalarda xulq madaniyati qoidalariga rioya etishning to'g'ri olib borilmasligi sababli quyidagi zararli xatti-harakatlarni paydo qilishi mumkin: tirnoqni tishi bilan sindirib tashlash, to'g'ri yuvinmaslik, ovqatlanish qoidalariga rioya etmaslik, o'z aytganini qildirish uchun jazavaga tushish holatlari va boshqalar. Bunday xatti-harakatlar oldini olish uchun milliy qadriyatlardan foydalanishda tarbiya jarayonining yaxlit va uzviyligiga rioya qilish, ya'ni tarbiya uzluksizligi, uslub va vositalar samaradorligi, tarbiyaviy ta'sir tizimlilik, bolalarda xulq-madaniyat qoidalarining odatga aylanishiga, bolalarni hurmat qilish va ularda ishonch tuyg'usini paydo qilishga erishish muhim ahamiyatga ega. Chunki ozgina bo'lsa ham xatoga yo'l qo'yish, bolalarda hurmat – dushmanlikka, hamdardlik va ayanch – boqibeg'amlik va ko'rolmaslikka, adolat – zulmga, insonparvarlik – jaholatga aylanishi mumkin. Eng yomon tomoni shundaki, bolada o'ziga va o'zgalarga bo'lgan ishonch tuyg'usining yo'qolishi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini tarbiyalash, eng avvalo, ijtimoiy yo'nalish kasb etishi muhim hisoblanadi. Mazkur faoliyat bolalar o'zaro munosabatlarida, o'rtoqlarining fikrlarini baholashda, ularning xatti-harakatlariga munosabat bildirishda ko'rinadi. Bunda salbiy xatti-harakatlarni qoralash va ijobiy ishlarni rag'batlantirishlari muhim ahamiyatga ega. Lekin bu holatlar hali beqaror bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xula-odob me'yorlariga amal qilishi, bajarayotgan ishini oxiriga yetkazishi, hamkorlikda mehnat qilishga o'rganishi, tartib-qoidalarini buzgan bolalarning bu xatti-harakatlarini bartaraf etishga yo'naltirishda turli uslub va usullarni qo'llashi muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning his-tuyg'ulari va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning turli o'yinlarni bajarishga kirishib keta olishi, o'zaro kelishib o'ynay olishi, bir-birining qiziqishini hisobga olishini nazarda tutib, ana shu faoliyati jarayonida xulq madaniyati tarkib toptirib boriladi. Bu tajribalar, taassurotlar o'zaro munosabatlar mohiyatini o'zgartirib boradi. Chunki hamkorlikdagi o'yin bolalarda bir-biriga g'amxo'rlik, o'rtoqlik va do'stlik munosabatlarini paydo qiladi. Katta bog'cha yoshida o'rta bog'cha yoshdagilarga qaraganda munosabatlarida onglilik paydo bo'ladi. Ularda faollik, tashabbuskorlik, mustaqillikka intilish xususiyatlari ortib boradi. Mustaqillik esa, ba'zida tengdoshlari, katta yoshlilar bilan nizo paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Bunday vaziyatda murabbiy yoki boshqa katta yoshlilar beparvo bo'lsa, bolalarni o'z holiga tashlab qo'ysa, ularda madaniy xulq xislatlari emas, balki injiqlik, o'jarlik, xudbinlik paydo bo'lishi mumkin. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda

tashkilotchilik xislatlari, rivojlana boradi. Ular o'yin va mashg'ulotlar mavzuini tanlab, o'rtoqlarini bu mashg'ulotlarga jalb etadi. Mazkur tashkilotchilik faoliyat ularda jasurlik, faollik, mustaqillik kabilarni tarbiyalay boshlaydi. Ammo bolalar o'rtasida bu yoshda dangasalar, shuhratparastlar, xudbinlar, maqtanchoqlar bilan bir qatorda yengiltaklar, o'ziga ishonmaydiganlar ham uchraydi. Ana shundaylar bilan tarbiyachilar, ota-onalar va boshqa katta yoshdagilar ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishlari, ularga faol bolalar kabi bir xil munosabatda bo'lib, tarbiyaviy ishlar olib borishlari kerak. Bu yoshda bolalar har qanday xatti-harakatni, munosabatni tez ilg'ay oladilar, tarbiyachilarga, ota-onalarga, o'rtoqlariga ana shu munosabatlariga qarab baho beradilar. Lekin hali ularning irodasi barqaror bo'lmaganligi uchun tez o'zgarib turishi, baho berish mezoni o'zgarib turishi mumkin. Demak, faoliyat jarayonida bola xulqini, uning irodasini o'zgartira borib, tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, kundalik hayot jarayonida bolalarda ijtimoiy hayotda yuz berayotgan voqyea-hodisalarga qiziqish ortadi. Shunday vaziyatda bolalarga "Jim o'tir!", "Kattalarga aralashma", "Hali buni bilishga kichkinasan" kabi tanbehlar bilan emas, balki o'rinli, ularning dilini og'ritmaydigan tarzda javob beriladi. Bi borada ayniqsa, milliy qadriyatlarimiz qo'l keladi.

Masalan, Shohsanam o'yinchoq qo'ng'iroqda buvisi bilan gaplashayapti. U xuddi uyidagi katta yoshlilarning qo'ng'iroqda gaplashishiga taqlid qiladi: "Assalomu alaykum, Oyijon yaxshimisiz? Kasal bo'lmayapsizmi? Yaxshi, yaxshi. Raxmat! Ha xo'p bo'ladi. Kelinglar, dadamlarga salom deng" – deb gapni tugatadi. Bu so'zlashish tarbiyachi va boshqa bolalar nazaridan chetda qolmaydi. "Qo'ng'iroq"da, hatto, uylaridagi buvilari bilan ham gaplashishga ishtiyoq kuchayadi. 5-6 nafar bola navbatga turadi, hatto bir-biri bilan navbat talashib ham qolishadi. Shunda tarbiyachi qo'ng'iroqda gaplashgan barcha bolalarning so'zlarini taqqoslashi, asosan salomlashishdek ma'naviy boyligimiz va unga e'tibor, qo'ng'iroqda gaplashish madaniyatini Shohsanamning gaplashishi asosida tushuntirish va bir-ikki bolada mashq qildirishi ham mumkin. Ana shu o'yin natijasida xalqimizda azaliy odat – salomlashish madaniyatidan majburiy emas, bolalarnng o'yini asosida tabiiy mashg'uloti bo'lib o'tadi. Lekin hozirgi davrda qadriyatlarimizdan foydalanishda bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olmaslik holatlari ko'proq yuz bermoqda. Masalan "Navro'z" bayrami barcha xonadonlarda nishonlanadi. Lekin bayram tantanalarining ko'pida "Kelin salom", "To'y" kabi urf-odatlarimiz keng tus olib ketdi: 6 yoshdagi qizaloq og'ir zarbof kiyimda kelin, undan so'ng 6-7 yoshdagi kuyov va kuyovjo'ralar, to'y tantanasi, hatto bog'chalardan televideniye ekranlariga ham ko'chdi.

Buning o'rniga bolalarning yoshiga mos urf-odatlarimizni mashg'ulotlar, o'yinlar, kundalik turmush mazmuniga kiritilsa, maqsadga muvofiq bo'lur edi. Xalqimiz orasida bolalar sevib o'ynaydigan ot o'yin, hammompish, tosh o'yin, chillak, varrak, loysuvoq o'yinlari; insoniylik xislatlari tarkib topuvchi salom va alik, mehmondorchilik qoidalari, taom, fотиha, avqatlanish, kiyinish, tozalikka oid odatlar, Navro'z, hayit va boshqa bayramlar bilan bog'liq urf-odatlar (ramazon aytish va boshqalar), savdo-sotiq bilan bog'liq o'yinlar, e'tiqod bilan bog'liq ong, olqish, yaxshi niyatlar ham bolalikdan ular ongiga singib boradi. Yuqorida biz sanab o'tilgan udumlarning deyarli barchasida bolalar ba'zilarida o'yin tarzida, ba'zilarida aynan ishtirok etadilar.

Bolalar, ayniqsa, loy bilan bog'liq o'yinlarni sevib o'ynaydilar. Hammompish, loysuvoq o'yinlari bolalarda mehnatsevarlik, quruvchilik, muhandislik, hisob-qitob qilish kabi qobiliyatni shakllantirishga yordam beradi.

Lekin ba'zi ota-onalar va murabbiylar bolalarning kir bo'lishini istamay, loy bilan o'ynashni ma'n etadi. Lekin hammompish, loysuvoq va boshqa tuproq, loy bilan bog'liq o'yinlar bolalarni kasb-hunar, bunyodkorlik, zukkolik, fikr yuritishga yo'llashi bilan muhim bo'lib, ularni hayotga, turmushga tayyorlashning o'ziga xos maktab sanaladi. O'yinlar vositasida bolalar sanoqni o'rganadi, tuli burro bo'ladi, fikr doirasi kengayadi. Ko'p o'yinlarni bolalarning o'zlari o'yin jarayonida yaratadilar. Masalan, o'zlaricha rollarga bo'linib olgan 6 yoshlik Shavkat-ota, qo'shni qiz Lola-ona rolida. Shavkat-ota havlida stulga oyog'ini chalishtirib o'tirib olib, qo'lida gazeta o'qiyotganday holatda ona-Lolaga ish buyuryapti:

- Onasi, qaynoq choy keltiring. Onasi, qachon choyingiz qaynaydi? Buncha imillaysiz!

Ona-Lola yugurib-yelib xizmat qiladi:

- Hozir, dadajonisi, hozir.

Choynak-piyolada choy keltiradi. Dasturxon tuzaydi.

- Xuddi dadasining o'zi, ko'rganini ko'sirgan, — deydi Shavkatning onasi kulimsirab.

Demak, kattalarning har bir xatti-harakati bolalar nazaridan chetda qolmaydi, aynan nusxa ko'chiriladi. Shunga ko'ra oilada yoki bog'chada bo'lmasin, ehtiyotsizlik, ularni noto'g'ri yo'lga boshqarib yuborishi, unda biror noto'g'ri xislat ildiz otishi mumkin.

Shu bois qadriyatlarimiz bolalarning jismoniy, aqliy, ma'naviy kamol topishida, uning kelajakda turmush tarzini, hayotini, jamiyatda o'z o'rnini topishda asosiy omil bo'lishi, ya'ni to'laqonli madaniyatli fuqaro bo'lib yetishishining asosiy mezonini bo'la olishi bilan muhim tarbiya vositasi sanaladi. Ammo uni tanlashda bolalar o'yinlarini to'g'ri yo'lga boshqara olish, samarali uslub va usullarni qo'llash, bolalar yosh xususiyatini hisobga olish muhim va zurrur. Bu zaruriyatning o'zi ham qadriyatlarimiz bilan bog'liq bo'lib, o'zbek xalqi bu borada qanday boylikka ega ekanligini navbatdagi bandda ko'rib o'tishimiz mumkin.

1.2. O'zbek xalqining ma'naviy merosida xulq madaniyati tarbiyasi.

Xulq madaniyati va uni tarbiyalash yo'llari, uslub va usullari eng qadimgi davrlardayoq yaratilgan xalq og'zaki ijodi namunalari o'z ifodasini topgan.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini, insoniy fazilatlarni tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi bilan birga xalqimiz orasida keng tarqalgan urf-odatlar, marosimlar, an'analar, ayniqsa, muhim. Chunki mehnat an'analari zahirida shaxsning xulqiy sifatlari – mehnatsevarlik, yerga va tabiatga muhabbat, har bir narsaning qadriya yetish, mehnat baxt manbai ekanligini anglash kabilar yotadi.

Ayniqsa, axloq-odob tarbiyasiga doir fikrlar xalq og'zaki ijodida o'z ifodasini topgan. Xalq qo'shiqlari, rivoyatlari, ertaklari va boshqa namunalari xalqimizning boy tarixiy merosini ko'ramiz.

Doimiy qadrlanib kelayotgan muhim qadriyatlarimizdan biri mehnat tarbiyasiga oid namunalardir. Mehnat an'alarining tarbiyaviy ahamiyati benihoya. Chunki mehnatga muosabatni qaror toptirish yosh avlod tarbiyasining asosi hisoblanadi. Quyidagi rivoyatdan fikrimizni asoslashimiz mumkin:

“Kunlarning birida ota yosh o'g'li bilan daladan qaytayotganda, yo'lda yotgan taqani ko'rib qolibdi va ota o'g'liga:

- Taqani ol – deydi.

- Nimaga olaman? Bu menga kerak emas, singan taqa-ku – deb javob beradi, o'g'il.

Ota hyech nima demasdan taqani olib yo'lida davom etadi. Ular shaharga kirib kelishadi. Ota taqani temirchilarga sotadi va puliga holva sotib oladi. O'g'liga e'tibor bermagan holda holvani yev, uyiga jo'naydi. O'g'il ham holvani yegisi, totib ko'rgisi keladi. Buni payqab turgan otasi qo'lidagi holvaning bir bo'lagini atay yerga tashlab

yuboradi. O'g'il darrov engashib, holvani olib, og'ziga soladi. Birozdan keyin ota yana bir bshlak holvani yerga tashlaydi.

Shunday qilib, ular manzilga yetib kelguncha o'n martacha holva bo'laklari "tushib" ketadi va har safar bola uni terib, og'ziga soladi. Nihoyat, ota to'xtab, qolgan holvani o'g'liga berar ekan, deydi:

- Ko'rdingmi, bir marta yerga egilib, taqani olishga bo'yni yor bermadi, dangasalik qilding. Taqaning puliga kelgan holvani yerdan olish uchun o'n marta egilding. Endi quloq sol, agar sen onson ishni og'ir deb o'ylasang, undan ham qiyinroq ishlarga duch kelasan".

O'zbek xalqining o'ziga xos tarbiya usuli uzoq-uzoq davrlarga borib taqaladi. Shunday ekan, maktabgacha tarbiya muassasasining xodimlari o'zbek milliy qadriyatlarini, milliy an'analar va urf-odatlarini yaxshi bilishlari va unga tarbiya tizimida rioya qilishlari bola shaxsining kamoloti va kelajak avlodimizning xulq va madaniyatini tarbiyalashda asosiy o'rin egallaydi.

Bundan ko'rinib turibdiki, o'zbek xalqi bolalarni hayotga va mehnatga tayyorlashda asrlar davomida tarbiya an'alaridan keng foydalangan.

Shunday qilib, bugungi kunda maktabgacha tarbiya muassasalarida barcha manbalarni o'rganish, ulardan foydalanish va ularga amal qilish yosh avlodni ma'naviy barkamol etib tarbiyalashda muhim o'ringa ega. Bu o'rinda, ayniqsa, allomalarimizning tarbiya haqidagi ijodlarini, mutafakkirlarimizning ta'lim-tarbiyaga oid fikrlarini o'rganish va ularni ta'lim-tarbiya iste'moliga kiritish muhim ahamiyatga ega.

Mutafakkirlar odob tushunchasini keng ma'noda tushunishadi: xulqni tarbiyalash olish, o'zini boshqara olish, ayni chog'da o'zgalarni hurmat qilishni ham axloqiylik deb hisoblaydilar.

Dastavval, oila, bog'cha, maktablarda farzandlarga insoniy fazilatlarini singdirishda muqaddas kitob – Qur'oni karim, Hadisu sharifga teng keladigani yo'q.

Qur'oni karim ota-onaga, ustozga bo'lgan hurmat, shuningdek, birovning haqiga xiyonat qilmaslik, o'zini yomon xulqlardan saqlashni o'rganishda asosiy yo'llanma bo'ladi.

Islomda "tarbiya" so'zi "tabib" so'zidan olingan. Bu degani odam o'ziga, qarindosh-urug'lariga, oilasiga, umuman barcha kishilarga tabiblik – yaxshilik qilishi lozim, deb ta'lim beriladi. Hadislar islom olamida Qur'oni karimdan keyin ikkinchi muqaddas kitob hisoblanadi. Hadislar, umuminsoniy, axloqiy mezonlarga – estetik,

tibbiy, ta'limiy, siyosiy, ekologik va boshqa masalalarga bog'ishlangan. Mazkur masalalarni yoritish davomida xulq madaniyati tarbiyasi yo'llari, uslub va usullari bayon etiladi.

Buyuk mutafakkir allomalarimiz Forobiy, Beruniy, ibn Sino, Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Sa'diy Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abdulla Avloniy va boshqalarning xulq odobga oida asarlari ham xulq madaniyatini tarbiyalashda yo'llanma bo'lib hisoblanadi.

Ilu o'rta asr davrida ijod etgan Forobiy (879-950) pedagogik qarashlarida insonning barcha axloqiy imkoniyatlari – (yaxshilik va yomonlik, yaxshi xulqlilik va boshqa xislatlar) ni baxtga erishishdan iborat birdan-bir maqsad mevasi, deb biladi.

Forobiy “Aflotun qonunlarining mohiyati” asarida axloqiy fazilatlarni qanday o'zlashtirish mumkinligini tushuntiradi.

Adolatli, pok, jasur, bo'lishga odat qilish, shu bilan birga yomon qiliqlardan qutilish uchun ma'lum muddat o'tishi kerak. Aflotun aytadiki, tarbiyali odamlar o'z ruhlarini doimo quvonish, ortiqcha kulish, qattiq hafa bo'lish, yomon xulqlardan saqlanish kabi holatlarda mo'tadillik doirasidan chiqmaslikka majbur qila olishlari kerak [26, 36-45].

Inson yaxshi tarbiya ko'rmagan va turmushda tajriba orttirmagan bo'lsa, u ko'p narsalarni nazarga ilmaydi va ulardan jirkanadi.

Har kimki ilm hiqmatini desa, uni yoshligidan boshlasin, sog'-salomatligi yaxshi bo'lsin, yaxshi axloqli, yaxshi xulqli va odobli bo'lsin so'zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlansin, xiyonat, makr va hiyladan uzoq bo'lsin, diyonatli bo'lsin, barcha qonun-qoidalarini bilsin, bilimdon va notiq bo'lsin, ilmli va dono kishilarni hurmat qilsin, moddiy narsalar to'g'risida bilim egallasin [26, 61-68].

Munosib inson bo'lish uchun odamda ikki imkoniyat: ta'lim va tarbiya imkoniyati bor. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi. Tarbiya esa, bu kishilar bilan muloqot-axloqiy qadr-qimmati va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'l – deydi.

Masalan, Forobiy bilimdon, ma'rifatli, yetuk odamning obrazini tasvirlar ekan, bunday deydi: “Har kimki ilm-hikmatini o'rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, sog'-salomatligi yaxshi bo'lsin, yaxshi axloq va odobli bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo'lsin, barcha qonun-qoidalarini hurmat qilsin,

ilm va ahli ilmdan mol-dunyoisini ayamasi, barcha real, moddiy narsalar to'g'risida bilmga ega bo'lsin".

Forobiyni bu ko'rsatmalari bolalarga yoshligidan tarbiya berish va qanday tarbiya berishda asosiy yo'llanma. Zero, bolalikda berilgan tarbiya toshga o'yilgan naqsh kabi butun umri davomida hayoti qonuniga aylanadi.

O'rta asr daholaridan bo'lmish ibn Sino (980-1037) o'z davri fani taraqqiyotining cho'qqilaridan hisoblanadi. Uning xulq-odob tarbiyasiga doir asarlari hozirgi yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ibn Sino "Tib qonunlari" asarida yosh bolalarni tug'ilganidan boshlab tarbiyalash masalasiga alohida bo'lim ajratadi. Bola tug'ilgandan boshlab, oyoqqa turguncha ma'lum tartibda tarbiyalanib borishi lozim. Bu tartib o'z vaqtida ovqatlantirish, cho'miltirish, uxlatish, yo'rgaklash kabi tartiblardan iborat. Bularni ham ma'lum qoidalar asosida amalga oshirish darkor. Bola tabiatini mustahkamlashdagi muhim vositalar asta-sekin tebratish, musiqa eshittirish, ashula aytishdan iborat bo'lib, ular tartib bilan amalga oshirilsa, yaxshi uxlaydi. Tebratish uning tanasiga, musiqa uning ruhiyatiga orom baxsh etadi. Ibn Sino yosh bola tarbiyasini turli sharoitda ma'lum izchillik va tartib bilan olib borish haqida onalarga yaxshi maslahatlar beradi.

"Bola xulqini mo'tadillikda saqlashga alohida e'tibor berish kerak. Bunda ikki manfaat bor. Birinchisi – bolaning ruhi uchun bo'lib, u yoshlikdan boshlab, yaxshi xulqli bo'lib o'sadi va keyinchalik bu unga ajralmas malaka bo'lib qoladi.

Ikkinchisi – uning badani uchun, chunki yomon xulq turli mijoz buzilishlardan bo'ladi. Shuningdek, agar yomon xulq odatga kirib qolsa, u mijoz buzilishini keltirib chiqaradi. Masalan, g'azab kuchli qizdiradi, qayg'u kuchni quritadi...". Xulqning muvozanatda bo'lishi badan salomatligini saqlaydi.

"Jahling chiqqan taqdirda ham bironvga qattiq gapirma". Xulqlarning barchasi o'z tabiati bilan go'zal, yomon xulq-atvorlarga esa keyin erishilgan bo'ladi [20, 110-120].

Tarbiyachi bolalarni kamtarlik va donalikka o'rgatishda ibn Sinoning o'zi ajoyib namuna ko'rsatadi. Ilmning turli sohalarida, jumladan ta'lim-tarbiyada qimmatli g'oyalari shaxsiy ibrat namunasi bo'ldi.

Ibn Sino manmanlik, maqtanchoqlik va o'zidagi bilimga ortiqcha baho berish xususiyatlarini kishining ma'naviy-axloqiy past ekanligini ko'rsatuvchi belgilar deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, oiladan boshlab, bola faqat yaxshi odatlarga o'rgatilishi kerak, bu esa unda mustahkam xulq-atvor shakllanishiga zamin yaratadi.

Ibn Sino yosh bolani yaxshi axloqli, jismoniy sog'lom qilib yetishtirishda qo'pgina foydali usullarni ko'rsatib beradi. U tarbiya jarayonida shaxsiy namuna bo'lish usuli g'oyat katta ahamiyatga ega ekanligini qayta-qayta uqtirib o'tgan. Ibn Sinoning tarbiya to'g'risidagi fikrlari chuqur mazmunini, uning umaliy ahamiyatini quydagi so'zlaridan bilib olish mumkin:

“Bolaning xulqini mo'tadillikda saqlashga alohida e'tibor berish kerak. Bunda esa, bolani qattiq g'azablanishdan qo'rqish, xafalik va uyqusizlikdan saqlash orqali erishiladi. Bolaning xohlagan va foydali narsasini ko'zdan uzoqlashtirishga doim tayyor bo'lib turish kerak. Bu ishning ikki tomondan foydasi bor. Birinchi tomondan, bolaning ruhiga foyda qiladi, bola eng yosh chog'idanoq xushxulq bo'lib o'sadi va bora-bora unga bu xushxulqlik odat bo'lib qoladi. Ikkinchi tomondan, bolaning tanasiga foyda qiladi, chunki yomon xulq turli mijoz buzilishlaridaniborat bo'ladi. Shuningdek, agar yomon xulq odobga kirib qolsa, u mijoz buzilishini keltirib chiqaradi. Masalan, g'azab kuchli qizdiradi, qayg'u kuchsizlantiradi, xafsalasizlik nafsoniy quvvatni bo'shashtirib, mijozni balg'amlikka moyil qiladi. Xulq mo'tadilligi natijasida ham nafs, ham badan sog'lom bo'ladi”.

Haqiqatan ham, tarbiyachilarimiz bolalarni tarbiyalashda, ularga hayot haqidagi, odamlarning xulqi, madaniyatligi va ishi haqidagi dastlabki tasavvurlarni bilish, foydali odatlarni o'zlashtirishlari hamda hayot tajribasi orttirishlari katta ahamiyatga ega bo'lur edi. Oilada uchraydigan ko'pgina holatlar, ayniqsa, turli-tuman bo'lib, ular orasida ko'p tarqalganlaridan biri ota-onalarning haddan tashqari obro' talabliklari, ko'pgina tarbiyachilar va o'qituvchilarini hurmat qilmasliklari. Bolaning har bir qadami nazorat ostiga olinsa, uning xulqidagi mustaqil yo'nalishni yo'qqa chiqaradi. Ular o'z-o'ziga ishonch kuchini yo'qotadi. Bundan, tashqari bola hayotining bog'chada o'tishi davomida tarbiyachi nazoratida bo'ladi. Tarbiyachi bolani yaxshi tarbiyalagani bilan, lekin uyda shunday tarbiya davom etsa, maqsadga erishish mumkin emas. Masalan, ayrim bolalar bog'chada yaxshi o'ynab, berilgan topshiriqlarni bojaradilar, uyga kelganida esa, ota-onalari, buvi-bobolarining erkalatishlari tufayli tarbiya buziladi. Bunday bolalar kattalarning qarama-qarshi fikrlariga moslashishga harakat qiladi. Bu esa bolada ikkiyuzlamachilik,. Xushomadgo'ylik kabi salbiy illatlarning shakllanishiga sabab bo'ladi.

Bola tarbiyasida tarbiyaning butun tizmi uni yaxshi va yomonni farq qilish, yomonga qarshi tura olish, o'zna tiya olish qobiliyatini tarbiyalashda o'zbek mutafakkirlarining tarbiya xususidagi ta'limoti katta ahamiyatga ega.

Masalan, Yusuf Xos Hojib o'zining mashhur "Qutadg'u bilig" asarida barcha yaxshi ishlarning manbaini ezgulik, yomon ishlarning asosini ezgulik nomlari bilan ifodalaydi. U inson hayotda qilgan ishi bilan yo yaxshi nom qoldiradi yoki yomon nom oladi, deydi. Asarda olim barcha ezgulikning boshi til odobi,. Uning foyda qa zarari haqida fikr yuritadi: til insonning qadr-qimmatini oshiradi yoki shu til orqali inson yuztuban ham ketishi mumkin, deydi. Kishi ikki narsa bilan hayotda mangu qoladi: birinchisi xushxulqlik bo'lsa, ikkinchisi esa yaxshi so'z, deydi olim.

Insoniy munosabatlarning eng oliy mezonini sanalgan hurmat va ehtiromni tarkib toptirishning barcha ko'rinishlari asarda o'z ifodasini topgan. Yusuf Xos Hojib jamoatchilik taqdirini hal etuvchi ulug' mansabdorlardan tortib, oila a'zolarigacha bir-biriga bo'lgan muomala-munosabat masalalarini hayotiy misollar vositasida yoritadi. Katta yoshlilarning kichiklarga, kichiklarning ulug'larga, amaldor va mansabdorlarning o'z xizmatchilariga, xizmatchilarning o'z xo'jalariga, tarli ijtimoiy guruh a'zolarining bir-birlariga muomala madaniyatining oddiy ko'rinishlarigacha tasvirlab, kishilarni ko'z oldida yaqqol namoyon etadi. Buni biz farzand tarbiyasida, uning tug'ilgandan boshlab, xulq-odob qoidalarini bayon etishidan bilsak bo'ladi.

Olim ulug'lar va kichiklar o'rtasidagi xulq madaniyati qoidalari haqida gapirar ekan, shu asnda muomala talab va qoidalarini ham tavsiya etadi. Bu talab qoidalar turli munozaralar, o'gitlar, uchrashuvlar, suhbatlar misolida ko'rsatib beriladi.

"Elig bir kuni O'gdulmishni chorlab, undan insondagi faydali fazilatlar hamda yaramas odatlar qanday bo'ladi? Deb so'raydi. O'gdulmish javob beradi:

– Ey, Elig, - deydi u, - odamdagi eng ezgu fazilat ezgu qiliq va go'zal xulq. Ikkinchisi rostlik, uchinchisi hayo hisoblanadi. Mana shu uch fazilatbirlashsa, kishi baxtli bo'ladi. Qut-iqbol uning huzuriga bosh urib keladi. Chunki kimning xulqi go'zal bo'lsa, uni barcha xalq sevadi. Xulqi soz bo'lgan odamga doimo to'rdan joy tegadi.

Hayo yaramas ishlardan tiyadi. Hayosizlik aslida juda yomon dard, borib turgan balodir. Rostgo'ylik, hayo va xushxulq birlashgan joyda baxtiyorlik bo'ladi" [108, 964].

Ahmad Yugnakiy esa o'z zamonasining taniqli mutafakkiri sifatida kishilarning bir-birlari bilan xushmuomalada bo'lishni, dilni og'ritmaslikni maslahat beradi. Mutafakkirning uqtirishicha, so'z axloqni bildiradi. Axloqli kishining tili – so'zi yoqimli

bo'ladi, yomon xulqli odamning tili o'z boshini yeydi, deydi. Ahmad Yugnakiy odamlarni tilni tiyib, odobli, axloqli bo'lishga, yaxshi insoniy fazilatlarni egallab, xulq hurmatiga sazovor bo'lishga chorlaydi.

Ahmad Yugnakiy inson axloqliligini ko'rsatuvchi muhim belgilardan birinchisi til odobi deb biladi. Shuningdek, axloqlilikning tarkibiy qismi sanalgan tilni tiyish, molidunyoga muhabbat qo'yish oqibatlari, sahovat va baxillik, kamtarlik, jinoyat yo'lidan saqlanish haqida, harom va halollikning farzlari, ularni bir-biridan farqlay olish, e'tiqod va sadoqat kabi muhim masalalar ustida fikr yuritadi.

Ahmad Yugnakiy yaxshi xulq madaniyatini shakllantirish va yomon illatlardan soqit bo'lish yo'llarini tavsiya etadi. Masalan, boylik to'plashga mukkasidan ketgan kishilarga mo'tadil hayot kechirishni maslahat beradi va kishilarni sabr-qanoat, tinch-totuvlikka undaydi.

Adib foydasiz tortishuvlardan inson o'zini tiyishi kerak, deydi. Bu tortishuvlar ulug'larning g'azabini keltirsa, kichiklarning xulqini buzadi, deydi.

Xulq madaniyati insonning axloqiy xislatlaridan biri hisoblanar ekan, bunday xislatlarni tarbiyalash masalalari Alisher Navoiy asarlari mazmunida keng bayon etilgan.

Alisher Navoiy yaxshi xulq alomatlaridan biri qanoatdir, deydi. U qanoatni inson o'ziga bezak qilib olishi kerak, deb hisoblaydi.

Alisher Navoiy axloqlikning muhim mezoni sanalgan odob haqida fikr yuritarkan, "Adab kichik yoshdagilarni ulug'lar duosiga sazovor etadi va u duo barokati bilan umrbod bahramand bo'ladi. Adab kichkinalar mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi va u muhabbat ko'ngilda abadiy qoladi"... deb ta'riflaydi. Demak, yaxshi xulq asosi – odob. Alisher Navoiy ta'biricha, barcha insoniy xislatlarning boshlanishi sanaladi. Insonga xos xislatlarga ana shunga bog'liq ravishda ta'rif beriladi. Zero, haqiqiy insonga xos xislatlar – qanoat, sabr, tavozye, ishq, vafo, saxovat, himmat, karam, muruvvat, yumshoq ko'ngillik odobli kishida tarkib topadi. Masalan:

Qanoat buloqdir – suvini olgan bilan qurimaydi,

Erkinzordir – urug'i izzat va shavkat mevasini beradi.

Daraxtdir – shoxi tortinchoqlik va hurmat mevasini yetkazadi. Ko'ngilga undan ravshanlik yetar va ko'z undan yorug'lik natijasi hosil etar.

Kimki, qanoatlansa, shoh va gado bordi-keldisidan ozod bo'ladi... qanoat bu qo'rg'ondir, u yerga kirsang nafs yomonligidan qutularsan, tog'liqdir – u yerga chiqsang

dushman va do'stga qaramlikdan xalos bo'larsan; tubanlashish – natijasi yuksak zoriqishlik – foydasi ehtiyotsizlik urug'ining mevasi farovonlik.

Har kimning agar qaoatga nisbati bo'lsa, archa kishilar o'rtasida izzatli va hurmatli bo'lur.

Kimniki jamou xir bilan ulfati bo'lsa,

Yaxshi-yomon oldida xor bo'lur va nahs ko'rinur.

Alisher Navoiy bola tarbiyasiga va uni shaxs sifatida shakllantirishga katta ahamiyat berib, bolani hayot “chirog'i” deb ta'riflaydi.

Bola oilaga baxt va saodat keltiruvchi ziyodir.

Alisher Navoiy bolalarga kichik yoshligidanoq bilim, ma'lumot va tarbiya berishlikni ko'rsatib, o'g'il-qizlarni olti yoshdan tarbiyachiga,.. muallimga berish lozimligini aytadi. Ana shu ilk yoshidayoq fanlarni va hunarlarni egallab olmoqligi lozimligi ta'kidlanadi.

Husayn Voiz Koshifiy “Odob – bu qalbni yomon so'zlardan va nojo'ya xulqdan saqlay olish, o'zini va o'zgalarni hurmat qila bilish, shu bilan birga o'zini va o'zgalar obro'sini tushirmaslik,” – deydi. U “Inson axloqsizligi uning o'zigagina emas, balki o'zgalarga ham salbiy ta'sir qiladi” – deb ta'kidlaydi.

Husayn Voiz Koshifiy insonlardagi sofdillik, rostgo'ylik, saxiylik, vijdonlilik, irodalilik, qat'iyatlilik kabi fazilatlarni ulug'laydi va axloqlilikning bir necha masalalarga alohida e'tibor beradi.

U, birinchidan, insonda oliyjanoblik xususiyati bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Oqko'ngillilik, bag'rikenglikni odob belgisi deb hisoblaydi.

Ikkinchidan, sofdillik, sabrlilik; uchinchidan, rostgo'ylik; to'rtinchidan, saxiylik; beshinchidan,.. mehnatsevarlik insonning barkamolligidan dalolat beradi, deb uqtiradi Husayn Voiz Koshifiyning insoniy burch, ota-ona qadri haqidagi fikrlari salmoqli va bugungi kun uchun ahamiyatli.

O'rta asr pedagogik rivojida Furqatning xizmati benihoya katta. Furqatning axloq haqidagi fikrlari markazida vatanparvarlik, kishilarga muhabbat, shu bilan birga ularga mehribon, muruvvatli bo'lish, do'stlik, to'g'rilik, rostgo'ylik fazilatlari turadi.

Bular Furqat uchun yuqori axloqiy fazilat hisoblanadi va ularni targ'ib-tashviq qilish uning ijodida katta o'rinni egallaydi. Furqatning odamni izzat-hurmat qilish to'g'risidagi fikrlari alohida etiborga sazovor.

U insonni ilm-fan yaratuvchi, ixtirolar manbai, deb hisoblaydi. “Soʻz insonning daraja va kamolini, ilmi va fazlini oʻlchab koʻrsatadigan tarozidir. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvati, qadr va qimmatini soʻzlagan soʻzidan bilurlar” .

Zamonamizning yirik maʼrifatparvarlaridan boʻlmish Abdulla Avloniy inson barkamolligi uning aqlida, jismoniy sogʻlomligida hamda odobi xushxulqida, deb biladi. Abdulla Avloniy til va soʻz odobiga katta ahamiyat beradi.

Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” kitobining “Haqqoniyat” deb atalgan bobida, rostlik va toʻgʻrisoʻzlikni insonning ulugʻ insoniy sifatlaridan biri deb hisoblaydi va u toʻgʻrisida shunday deb yozadi:

“Haqqoniyat deb ishda toʻgʻrilik, soʻzda rostlikka aytilur. Inson boʻstoni salomatga , gulzori saodatga haqqoniyat yoʻli ila chiqar.

Insoniyatning ildizi ulkan rahmdillik, haqshunoslik, odillik kabi eng yaxshi sifatlarining onasi haqqoniyatdir...” .

U inson odobidagi hayo va iffatni yuqori baholaydi. Hayo deganda ishda, soʻzda odobga rioya qilmoqni tushunadi, uni insoniylikning muhim belgisi, deb biladi.

Abdulla Avloniy axloq – bu xalqlar majmuasi, ammo yaxshi xulq oʻz-oʻzidan paydo boʻlmaydi. Ularning shakllanishi uchun maʼlum bir sharoit – tarbiya kerakligini aytadi. U bola tarbiyasida shart-sharoit roliga alohida eʼtibor beradi va tarbiyaning bola kamolotida tutgan oʻrni toʻgʻrisida shunday deydi:

Temirchining bolasi tarbiya topsa boʻlur olqish,

Buzilsa xulqi, Luqmon oʻgʻli boʻlsa, boʻlgʻusi zolim!

Abdulla Avloniy xulqni quyidagicha taʼriflaydi:

“Inson ikki narsadan murakkabdur, biri jasad, ikkinchisi nafsdur, - deydi olim. Jasad koʻz ila bor narsalarni koʻrur. Ammo nafs idrok ila yaxshini yomondan, oqni qoradan ayirur.

...Ammo nafsning surnati koʻzga koʻrinmaydigan, afl bilan oʻrganadurgan bir narsadirki, buni xulq deb atalur.

Yuqoridagi fikrlarning barchasini bayram ertaklari, guruhlarining oʻzlari oʻtkazadigan ajoyib tadbirlari, har xil kechalar mazmuniga kiritish va tushuntirishlar olib borish maqsadga muvofiq.

Bolaning xulq madaniyatini tarbiyalashda uning xulqi, madaniyatligi orqali kamtarlik, oʻzaro hurmat, mehnatsevarlik, hunarmand boʻlib tarbiyalashdan iborat.

Bolalarni tarbiyalashda maqollar, ertak va dostonlar, qo'shiq va rivoyatlar, an'analar, urf-odatlarining ayrim ko'rinishlarini qo'llash maktabgacha tarbiya muassasalarida o'z tarbiyaviy imkoniyatini topishi lozim. Bu o'rinda tarbiya olayotgan bolalarning xulq madaniyatini shakllantirish maqsadida xalqimizning urf-odatlari, an'alaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim-tarbiya ishlarida xalqimizning hayotda o'zini oqlagan an'alarini oila, bog'cha va jamoalarda qo'llash, ulardan o'rinli foydalanish kabi vazifalar hamisha dolzarb bo'lib kelgan va bular bolalar tarbiyasida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha tarbiya muassasalarining ish rejalarida bolalar bilan o'tkaziladigan noan'anaviy bayramlarda buyuk mutafakkirlar, shoir va odiblarning bola tarbiyasi haqidagi fikrlari muhim ahamiyatga ega. Hozirgi davrda allomalarimizning asarlaridan bog'cha yoshidagi bolalar yoshiga mos holda foydalanishga oid qo'llanmalar, uslubiy tavsiyalar deyarli yo'q hisobida. Mutafakkirlarimizning ilmiy meroslari, ma'rifiy-ta'limiy qarashlari ko'p qirrali bo'lib, ular mazmunida insonning eng yaxshi fazilatlarini shakllantiruvchi odob-axloqqa oid ajoyib fikrlari mavjud. Buyuk mutafakkirlar ta'limotida xulq mazmuniga kamtarlik, xushmuomalalik, o'zini tuta bilishlik, o'zaro hurmat, Vatanga sodiqlik, vatanparvarlik, iymon-e'tiqod qarashlarini baholash kabi durdona fikrlar kiritilgan. Lekin sho'rolar mafkurasi tazyiqida milliy an'analar, urf-odatlar va udumlarimizga hadiksirab qaraldi, uning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanishga yo'l berilmadi. Hayotbaxsh ajoyib an'alarimiz kamsitildi. Ba'zi an'ana, urf-odat va udumlarisiz esa, hatto turmushimizdan surib chiqarildi. Ovropacha turmush tarzining bir yarim ming yillik musulmon shariati qonun-qoidalari asosida turmush kechirib kelgan xalqimiz xayotiga tatbiq etilishi xalqimiz ongida, turmushida to'qnashuvlar va ziddiyatlar keltirib chiqardi. Xalq ikki o't oralig'ida qoldi. Natijada, ta'lim, shu jumladan, ta'lim-tarbiya, xulq-odob madaniyatini tarkib toptirishda umumiy yo'nalish kasb etdi.

Shunday qilib, maktabgacha tarbiya muassasalarida tarbiyalanuvchilarni milliy qadriyatlarimiz sanalgan mutafakkir – allomalarimizning ta'lim-tarbiyaga doir fikrlari bilan tanishtirib borish, tarbiyalash nazardan chetda qoldi.

Biz bunga maktabgacha tarbiya jarayonida xulq madaniyatini shakllantirishda milliy qadriyatlardan foydalanish holatini kuzatish va tahlil etish orqali amin bo'ldik. Lekin hozirgi sharoitda mustaqil davlatimizda yosh avlodni milliy qadriyatlarimiz vositasida tarbiyalashga keng yo'l ochilgan ekan, biz bu borada ham amaliy, ham ilmiy-tadqiqotishlar olib borish mazmuni, sifati va ko'lamini yanada kengaytirishimiz muhim.

1.3. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq madaniyatini shakllantirish holati.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida xalqimizning milliy qadriyatlari, ularning urf-odat va an'analarini o'rganish muhim ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada xulq madaniyatini shakllantirish vazifasi va mazmuni uning ma'naviy dunyosini, ongini, axloqiy xislatlarini, shaxsiy sifatlarini tarbiyalashni taqozo etadi. Afsuski, xulq madaniyatini tarkib toptirish uchun an'analarimiz, udumlarimiz, urf-odatlarimizni bolalar ongiga singdirishda hali to'liq tasavvurlarga ega emasmiz. Chunki asrlar davomida rivojlanib kelayotgan milliy qadriyatlarga, an'ana, udum va urf-odatlarga, xulq madaniyati haqidagi g'oyalarga haligacha to'liq e'tibor berilmayapti. Kuzatishlar, ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, bolalarimiz milliy qadriyatlarimiz bo'lgan an'analar, udumlar va urf-odatlarimiz haqida to'liq tasavvur va tushunchaga ega emaslar.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida milliy qadriyatlar vositasida xalq madaniyatini shakllantirishning asosiy maqsadi yosh avlodda milliy qadriyatlarga sodiq bo'lish, xalqimizning ma'naviy merosini o'rganish, mustaqil O'zbekistonning barcha udumlarini, urf-odatlarini, tarixini asrovchi fuqarosi bo'lish, butun jahonga tariximiz va millatimizning qudratini namoyon etuvchi shaxsni tarbiyalashdir.

Axloq-odob o'zbek xalqi hayotining mag'zi hisoblanadi. Insonning insoniyligi birinchi navbatda uning ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi, xulq-atvori bilan belgilanadi. Ma'naviy-axloqiy barkamol inson ota-onasi, farzandlari, qarindoshlari, mahalla-ko'yi, qishloqdoshlari va butun mamlakat farovonligi haqida qayg'uradi.

Umuman olganda, O'zbekiston jamiyatni tubdan yangi asosda qurish va uni har tomonlama rivojlantirish xalqning dunyoqarashi, ma'naviyati bilan bevosita bog'liq. Bu haqda Prezident I.A.Karimov shunday yozadi: "O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o'z yo'li quyidagi to'rtta asosiy negizga asoslanadi:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik .

Mazkur asoslar hozirgi kunda bolalar bog'chalari tarbiyachilarining ham milliy qadriyatlardan foydalanish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Bu esa o'z navbatida maktabgacha tarbiya muassasalarining ish rejalarida, bolalar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda qadriyatlarimiz bo'lmish an'analar, udumlar, urf-odatlar, xalq ijodiyoti namunalaridan foydalanishni taqozo yetadi. Ba'zi qishloq bolalar bog'chalarida bo'lganimizda tajriba va kuzatishlar shuni ko'rsatidiki, tarbiyachilarimiz o'sha eski qolipda ish ko'rib, mashg'ulotlarni zerikali o'tmoqdalar. Bolalar muassasalarida mashg'ulotlarni o'yin tarzida qiziqarli tashkil etilmaganligi bolalarning mashg'ulotlarga qiziqmaganligi, ularning xatti-harakatlari, mashg'ulot natijalaridan ko'rinib turibdi. Bolalarga bog'cha hayoti qanchalik qiziqarli tashkil etilsa, ular shunchalik quvonch bilan bog'chaga kelishga shoshiladilar. Lekin hozir ham bolalarimizning bog'chaga bo'lgan munosabatlari yaxshi emas. Buning sabablari: biz shu paytgacha rus tilida chop etilgan qo'llanmalardan, dasturlardan foydalanib keldik; tarbiyachi-pedagog uchun ijodiy ishlash, erkin bo'lish man etilgan edi, hamma bir qolipdan chiqmasdan ta'lim-tarbiyani boshqarishi kerak edi. Buning ta'siri hanuzgacha davom etib kelmoqda. Milliy madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, sharqona odob-axloqimiz, o'lkamizning har bir tuman, viloyatning o'ziga xos an'ana, udum va urf-odatlari, shuningdek o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan dasturlar, darslik va uslubiy qo'llanmalar yetarli emas. Bu borada maktabgacha tarbiya muassasalari bilan shug'ullanuvchi olimlarimiz sust ish olib bormoqdalar. Ayniqsa, xulq madaniyatini tarbiyalashda asosiy vosita an'alarimiz, udumlarimiz, urf-odatlarimizdan foydalanishga doir o'quv, uslubiy qo'llanmalar yaratilmagan. Vaholanki, bunday an'analar, udumlar va urf-odatlarimizni har bir guruhdagi bolalar yoshiga qarab yaratish mumkin. Bolalar bog'chalarida ishlayotgan tarbiyachilar bolalarning xulq madaniyatini tarbiyalash kabi masalalar bilan har tomonlama: iomiy-pedagogik, uslubiy-didaktik tomondan shug'ullanishlari uchun tarbiyachilarga ma'lum tavsiyalar, yo'nalishlar berish zarur. Lekin shuni ta'kidlash joizki, biz milliy qadriyatlarimiz bo'lgan an'analar, udumlar va urf-odatlarimizga asoslangan uslubiy tavsiyalar, dasturlarni yaratishda o'zbek xalqining tili, tarixi, an'analari, udumlari, urf-odatlari orqali bog'cha bolalarida xulq madaniyatini samarali tarbiyalash mumkin. Buning uchun esa:

- maktabgacha tarbiya muassasalarida qadriyatlarimizdan xalq o'yinlarini ko'paytirish lozim;

- o'zbek xalqining an'analari, udumlari, rasm-rusumlariga oid to'plam chop etish, bunda, ayniqsa, maktabgacha tarbiya bilan shug'ullanuvchi mutaxassis olimlarfaoliyat ko'rsatishsa, maqsadga mufaviq bo'ladi;

- har bir tuman va viloyatning xududiy xususiyatlarini hisobga olib, uslubiy tavsiyalar yaratish lozim.

Hozirgi kunda ilgari ishlangan manbalar kitob javonlaridan olib tashlandi. Mana shu munosabat bilan, ayniqsa, maktabgacha tarbiya muassasalari uchun ishlangan ishlanmalar juda kam. Bu narsa maktabgacha tarbiya muassasalari ta'lim-tarbiyasiga salbiy ta'sir etmoqda.

Biz ko'pgina viloyatlardagi tumanlar bog'chalarida bo'lganimizda tarbiyachilarning ko'pi, hatto maxsus kasbiy bilimga ega emasliklarini ko'rdik. Sababi shundaki, eng avvalo, tarbiyachi, hatto o'rta maxsus bilimga ham ega emas, uslubiy adabiyotlardan xabarsiz. Bolalar bog'chasida bolalar kamayib qolgan. Chunki bog'cha hayoti qiziqarli tashkil etilmagan, bog'chaga to'lov haqi oshirilib yuborilgan. Kitob javonlarida kerakli uslubiy manbalar kam, qo'lda yasalgan o'yinchoqlar ko'rinmaydi, o'yinchoqlar har 5-6 bolaga bittadan to'g'ri keladi. Guruh xonalari milliy, sharqona usulda bezatilmagan. Uslubiy adabiyotlar yetishmasligi sababli tarbiyachilar malaka oshirish, o'z ustularida ishlash imkoniyatiga ega emas. Natijada, tarbiyachilardan bog'cha mudirlari ish samarasini talab qila olmaydi. Bog'chalar pedagogik jihatdan ta'minlanmagan. Faqat P.Yusupova muallifligida chop etilgan "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi" kitobida ham qadriyatlar va urf-odatlar haqida umumiy fikr berib ketilgan, xolos. Bolalar bog'chasining dasturida qo'shimcha uslubiy tavsifnomalar chiqarilgan bo'lsada, unda ham atigi qisqacha ma'lumot va mavzusi berilgan.

Ma'lumki, har bir xalqning o'z o'tmishi, an'analari, udumlari, urf-odatlari, rasm-rusumlari borki, ular asrlar mobaynida qadrlangan, xushmuomalalik, sabr-toqat, mehmondo'stlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlar alohida o'rin topgan. O'zbek xalqi o'z mustavilligini qo'lga kiritgan bir davrda ota-bobolari, ajdodlari shavkatidan faxrlangan holda, ularning boy tajribalarini chuqur tadqiq etish, puxta o'rganishi zarur. Bu yoshlarda bobolar ishlaridan, nasl-nasabidan faxrlanish tuyg'ularini vujudga keltiradi va ular o'tmish an'analari, udumlari, urf-odatlariga sodiq bo'lishga harakat qaladilar. Bu mo'tabar va sharaflil vazifalarni ado yetish munosabati bilan ta'lim-tarbiyani milliylashtirishga alohida e'tibor berilmoqda. Lekin tarbiyani milliylashtirishni millatga xos yangi urf-odatlarni yo'qqa chiqarib, o'zligimizga qaytish bahonasi bilan

umuminsoniy tarbiya namunalaridan voz kechish, deb tushunmaslik kerak. Biz mana shu qadriyatlarimizni, ota- bobolarimiz tajribasini o'rganib, hayotimizning ravnaqiga qarab o'zimiz ijod etishga, yangiliklar kiritishga, ya'ni ta'lim-tarbiyani jahon andazalari darajasiga yetkazishimiz kerak. Lekin an'analarimiz, udumlarimiz, urf-odatlarimizdan foydalanishda har bir viloyat va tumanning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqish va undan ijodiy foydalanib, zamon talablari asosida iste'molga kiritish lozim. "Maktabgacha tarbiya Konsepsiyasi"da, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"dagi ko'rsatmalar, "Boshlang'ich ta'lim", "Xalq ta'limi", "Maktab va hayot", "Pedagogik ta'lim", "Sog'lom avlod" kabi jurnallar va "Ma'rifat" gazetasida yoritilayotgan materiallar bu borada bizga yordam beradi.

Ammo "Bolalar bog'chasi" dasturida (1975, 1978, 1985 yillardagi dasturlarda) asosan milliy qadriyatlarimizdan foydalanishga to'xtab o'tilmagan. 1995 yilda chop etilgan dasturda ham an'analarimiz, udumlarimiz, urf-odatlarimiz to'liq ko'rsatilmagan. Shunga ko'ra bolalarni milliy qadriyatlarimiz bo'lgan an'nalarimiz, udumlarimiz, urf-odatlarimizdan foydalanish vositasida uning mazmun-mohiyatini ochib berish, alohida uslubiy tavsiyanomalar ishlab chiqish, bog'cha bolalarida xulq madaniyatini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Dastur ishlanmalarida "Odobnoma" o'quv kursi mavjud. Lekin "Odobnoma"da alohida xulq madaniyatini shakllantirishda an'analarimizdan foydalanish haqida fikr yuritilmagan. Biroq bolalarimiz hayotini kuzatganimizda, ular ko'proq an'analarimizdan o'yinlar o'rin olganini, jon-dildan ijro etganliklarining guvohi bo'lamiz. Mazkur o'yin davomida ular bir-birlarining oldida o'zlarini qanday tuta bilishni, muomala madaniyatini o'rganadilar va shu o'yinlar davomida kamchiliklarini bartaraf qilishga kirishadilar. Bu bilan bir qatorda, birinchidan, maktabgacha katta yoshdagi bolalarning idrokli kuzatishlari, xayollari odatda o'yinda namoyon bo'ladi; ikkinchidan, ulardagi mazkur tasavvurlar ko'rganlarini o'z tajribalarida taqlid qilmasdan tura olmasliklarini; uchinchidan, maktabgacha yoshdagi bolalar har doim hissiyoti balandligidan, hatto xafa bo'lib bo'lib turganlarida ham yaxshi kayfiyat bag'ishlovchi bir holat tashkil etilsa, bolaning shu zahotiyoq xafaligi quvonchga aylanishi namoyon bo'ladi. Ana shu jarayonda bolalarda xulq madaniyati shakllanadi. Chunki bolalar yosh xususiyatlariga ko'ra ta'sirchan bo'ladilar, shuning uchun ularga hamma namoyishlao ta'sir etadi. Bolalar bir marta amalda ko'rgan narsalarini uzoq vaqt davomida eslab qoladilar.

Psixologlarning aytishicha, bolalar ko'proq xatti-harakatdagi, ya'ni sezgilar ishtirokidagi narsalarni tezda esda saqlab qoladilar. Shunday ekan, milliy qadriyatlar vositasida xulv madaniyatini bolalarning ilk bolalik davridan boshlab, tarbiyalash maqsadga muvofiq.

Ma'lumki, ijtimoiy tarbiyaning bir bo'lagi bo'lgan xulq madaniyati kichik yoshdagi bolalarda kichik bog'cha yoshida ongi va yuksak irodaviy sifatlari mukammal tarkib topmagan va turmush tajribalari nihoyatda oz bo'ladi. Psixolog va pedagog olimlar (M.Rasulova , M.G.Davletshin , E.G'oziyev, S.G'oziyeva) olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijasi bunday bolalarda axloqiy rivojlanish juda erta boshlanishini ko'rsatadi; bola hayotining birinchi oyidayoq kattalar u bilan gaplashganda quvonib ketadi.

Mazkur tadqiqot ishlarida masalaning ana shu tomonlariga ko'proq e'tibor berildi. Bog'cha yoshidan boshlab, bolalarda xulq madaniyatini tarbiyalash, yuqorida aytib o'tilganidek, o'tkaziladigan noan'anaviy mashg'ulotlarda – bolalar xatti-harakatlarida faol tarkib topa boshlaydi. Katta guruh, ayniqsa, tayyorlov guruhi bolalari ko'pchilik oldida o'zlarini qanday tutish lozimligini hamda o'zlarining uydagi vazifalarini yaxshi anglab yetgan bo'ladilar. Ular, hatto tengqurlarining yoki o'zlaridan kattaroq bolalarning nojo'ya xatti-harakatlarini ko'rgan paytlarida tanbeh ham beradigan bo'ladilar.

Ma'lumki, bolalar maktabga bora boshlagach, uning hayotida o'zgarish yuz beradi. Maktab hayoti dastlabki kunlardan boshlab, bolalar shaxsiga kuchli ta'sir ko'rsata boshlaydi. Maktabga qatnay boshlagan bolalarning katta odamlar bilan munosabat doiralari ancha kengayadi. Masalan, bolalarning o'rtoqlariga munosabati, kech kelganda uzr, kechirim so'rashi kabilardir. Bundan tashqari, uyga borganda salom berib borishi, kattalar oldini kesib o'tmasligi, o'rtoqlari va jamoani har doim hurmat qilishi kabi ko'pgina xulq madaniyati belgilari namoyon bo'ladi.

Pedagogik jihatdan yondashadigan bo'linsa, maktab o'quvchilarida xulq madaniyatining vujudga kelishida bolaning bog'cha yoshidagi davri juda mas'uliyatli hisoblanadi. Chunki bu davrda xulq madaniyatining pedagogik jihatdan shakllanishi bir butun tarbiyaviy jarayon natijasi hisoblanadi. Mazkur faoliyatning to'g'ri tashkil etilishi inson hayoti davomida saqlanib qolishiga olib keladi. Shuning uchun ham mashg'ulotlar bilan bir qatorda milliy qadriyatlarimiz vositasi bo'lgan an'analar, udumlar, urf-odatlar, o'yin va ijtimoiy faoliyat muhim o'rinni egallay boshlaydi. Bog'cha yoshidagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq madaniyatini shakllantirish quyidagi 2-jadvalda ifodalangan.

2-jadvaldan ayon bo'lishicha, bular bolaning xulqida, tevarak-atrofga bo'lgan munosabatida, o'yin faoliyati davomida aks eta boshlaydi. Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot natijasida yuzaga kelgan faoliyatning har xil turlari ishlab chiqarish qurollarida, an'analarida, ijodlarida va boshqalarda aks etgan.

Kishilar mehnat an'analarining mahsuli kattalar tomonidan birgalikda faoliyat munosabatida bo'lishi, ta'lim va tarbiya orqali yosh avlodga berib boriladi. Shaxsning ijtimoiy tabiati mana shunday yo'llar bilan shakllanib boradi. Demak, bolani tarbiyalashda, uning rivojlanishida o'yin faoliyati yetakchi rol o'ynaydi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya muassasalarida va oilada bola hayotini an'analar, udumlar, urf-odatlarini turli-tuman usul va uslublardan foydalanib tashkil etish kerak. Shuning uchun buyuk mutafakkirimiz Alisher Navoiy bola yoshligidan oqil va fozil kishilar jamoasida qatnashib, ularning suhbatlaridan bahramand bo'liglari kerakligini tavsiya etadi. Hozirgi kunda, bir tomondan, o'tmishda mavjud bo'lgan ilg'or an'analarni o'zlashtirish, ularni hayotga tatbiq etish jarayoni kuchayib borayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, xalqning ma'naviy, siyosiy, iqtisodiy qiziqishlari asosida o'zbek oilalarining turmush tarzini o'zida ifodalovchi yangi an'analar, udumlar, urf-odatlar vujudga kelmoqda. Ularni sinovdan o'tkazish, saralash, maqbullarining hayotda o'z o'rnini topishi uchun harakat qilishi zarur. Bunday an'analar ichida oilaviy tarbiya bilan bog'liq va tarbiyaviy qimmatga ega bo'lgan ko'plab an'analar mavjud. Biz ularning ayrimlarini ko'rganda, ular umummilliy mazmun kasb etganligining shohidi bo'ldik. Masalan, qadimdan qo'shnilar, yor-do'stlarning uylarini tuzatish, qurish va shu kabi boshqa oilaviy marosimlarda qo'llanib kelingan hashar umummilliy ahamiyat kasb etadi, ularni ta'bir joiz bo'lsa, umuminsoniy an'nalar deyish mumkin. Hosil bayrami, yangi tug'ilgan chaqaloqni nishonlash, uning sharafiga daraxt o'tkazish, oila a'zolari, qariyalarni nafaqaga kuzatish, Navro'z, qushlar bayrami, gul bayrami va boshqalar ham shular jumlasidandir. Lekin maktabgacha tarbiya muassasalarida o'tkaziladigan tadqiqot ishlarimiz shuni ko'rsatadiki, deyarli tarbiyachilar, oilada ota-onalar xulq madaniyatini milliy qadriyatlar vositasida shakllantirishga kam e'tibor beradilar. Bundan tashqari, yana bir narsani nazardan chetda qolganligin aytib o'tmoqchimiz, bu ham bo'lsa, an'analar, udumlar, urf-odatlar har bir viloyatda, ya'ni viloyatlardani tuman va shaharlarda har xil nishonlanadi. Ayniqsa, Chiroqchi, Qamashi, G'uzor tumanlarida juda qisqa ko'rinishdagi an'analar bo'lib o'tadi. Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturidagi ko'rsatmalar talabga javob bermaydi.

Bizningcha, bunday tumanlarda o'zlarining shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda tarbiyachilar uchun uslubiy tavsiyanomalar ishlab chiqish lozim.

Ko'pgina tarbiyachilarimiz mashg'ulotlarni bolalar faoliyatida tashkil etishni bilmaydilar, ota-onalar an'ana va to'ylarga bolarni olib borganda, bolalarning ko'rganlari ularning yoshiga mos emas. Bundan tashqari, oilalarda nishonlanadigan tadbirlar ularning yoshiga mos kelmaydi.

Biz Jizzax shaxridagi 10-sonli "Do'stlik" bolalar bog'chasida ish olib borgan tarbiyachilar bilan so'rovnomalar o'tkazdik. Ularda:

- xulq madaniyatini milliy qadriyatlar vositasida tarbiyalash;
- xulq madaniyatini o'yinlar vositasida tarbiyalash;
- xulq madaniyatini oilada va bog'chada an'analar, udumlar, urf-odatlar asosida tarbiyalash;
- xulq madaniyatini o'yinchoqlar vositasida tarbiyalash kabi bandlardan qaysi biridan ko'proq foydalanish so'raldi.

So'rovnomalarda 15 nafar tarbiyachi qatnashdi. Ularning javoblaridan ma'lum bo'ldiki, tarbiyachilar xulq madaniyatini tarbiyalashda bularning barchasini qo'llaydi. Ammo mashg'ulotlarda bu tarbiya vositasidan uzluksiz tizimli foydalanilmaydi. Buni yuqoridagi 3-jadvalda ifodalash mumkin:

Demak, tarbiyachilar xulq madaniyatini shakllantirish borasida milliy qadriyatlardan foydalanadilar. Ammo bu jarayon uzluksiz, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan tarzda emas, balki o'z oqimiga ko'ra tarbiyachining saviyasi va malakasiga qarab amalga oshiriladi.

Tarbiyachining bolalar xulqi madaniyatini shakllantirish jarayoni, foizda

4-jadval

T/r	Familiyasi, ismi va otasining ismi	Mashg'ulot orqali	O'yinlar orqali	Erkin muloqot orqali	Ertalik-larda	Musiqamashg'ulotlari orqali	Ertaklar orqali
1	Axmedova M.	15	25	15	20	12	23
2	Hayitov B.	14	23	13	21	14	12
3	Hosilova D.	16	27	14	25	13	15
4	Rizvonov I.	11	29	14	27	13	16

5	Qondimov U.	13	25	12	20	13	17
6	Rajabov L.	17	26	13	22	10	13

Biz maktab yoshidagi bog'cha bolalarining xatti-harakatlarida xulq madaniyati belgilarining qay darajada namoyon bo'lishini kuzatdik. Bunda bolalarning muloqat madaniyatida muloyimlik, xushmuomilalaik, ochiq chehra, to'g'ri so'zlash, suhbatlashish qoidalariga rioya etish va hokazolar asosiy mezon qilib olindi. Faoliyatida esa xotirjamlik, odobli yurish-turish, mehnatga munosabati, mas'uliyatni his etish va hokazolarga e'tibor berildi.

Demak, milliy qadriyatlarimiz sanalgan an'ana, udum va urf-odatlarimizni tarbiya vositasi sifatida qo'llash uchun bolalar bog'chalariga mos ravishda tezda uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish darkor. Kuzatishlar, ish tajribalarini o'rganish natijasida shuni bildikki, tarbiyachilar bolalarga milliy qadriyatlar vositasida xulq madaniyatini shakllantirishda bolalar bog'chalarida an'analarimiz, udumlarimiz, urf-odatlarimizning ko'p qirralari deyarli sezilmaydi. Faqat beshik to'yi, alla aytish, Navro'zda esa tadbirlar ko'rsatilgan, xolos. Shuni aytib o'tish kerakki, P.Yusupova , O.Musurmonova, A.K.Munavvarov , S.G'oziyeva , A.G.Ibrohimov , S.Nishonova va bir qator olimlarning ko'p yillik tadqiqot ishlarining natijalari bo'lgan asarlari maktabgacha tarbiya muassasalarining ish faoliyatini shakllantirishga katta hissa qo'shib kelmoqda

O'zbek xalqi bugungi mustaqillikni qo'lga kiritgan bir davrda, otabobolar, ajdodlar shavkatidan faxrlangan holda ularning boy tajribalarini chuqur tahlil va tadqiq etish, puxta o'rganish zarur. Bu yoshlarda bobolar ishlaridan, nasl-nasabidan faxrlanish tuyg'ularini vujudga keltiradi va ular o'tmish an'analariga sodiq bo'lishga harakat qiladilar. Bu mo'tabar va sharaflil vazifalarni ado etishda, ta'lim-tarbiyaning ahamiyati va o'rni benihoya katta. Tarbiya turli vosita va omillar orqali amalga oshiriladi. Tarbiyaga bag'ishlangan bahs-munozara kechalari, tadbirlar shular jumlasidan. Ma'lumki, tarbiya doimiy va izchil takrorlash, ishontirish mevasi. Bog'chalarda odatda bolalarga tarbiyachi o'rnak bo'lgulik voqyea va hodisalarni so'zlab berish, hikoya qilish, tarbiya berilayotgan soha bo'yicha o'gitlar, nasihatlar qilish yoxud ramziy-timsoliy til bilan gapirish orqali mashg'ulotlarda tarbiya beradilar. Hayot va turmush tajribalarini qiyoslab saboq beradilar.

O'zbek xalqining eng yaxshi milliy an'analaridan biri o'z farzandarini kamtar, shirinsuxan qilib tarbiyalashga intilishidir. Oilada axloqiy xususiyatlarning shakllanishida

oilaviy muhit katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Ko'plab o'zbek oilalarida doimo kechki payt ota-onalar bolalariga pand-nasihatlar qiladilar. Shu sababli inson kamoloti uchun bog'chalarda mashg'ulotlar davomida milliy urf-odat va an'analardan foydalanish maqsadga muvofiq. Xalq madaniyatining eng muhim belgilaridan xushmuomalalikka, xulqi xushlikka alohida e'tibor berilgan. Sharq xalqlari o'z bolalariga soxtalik-yasamalikdan nari yurishni singdirib kelgan, samimiy munosabatni ulug'lagan, o'rgangan. Xalq og'zaki ijodini o'rganar ekanmiz, ta'lim-tarbiyaga, odob-axloqqa doir tarbiyaviy ishning eng ta'sirchan uslubi o'yin shaklidan juda oqilona foydalanganini ko'ramiz. O'g'il bolalarni uddaburon, chaqqon, topqir qilib; qizlarni mehr-shavqatli, uy ishlariga kirishimli qilib tarbiyalaydigan shunday an'anaviy o'yin shakllari bo'lganki, ularni xalq etnografiyasini o'rganish yo'li bilan tiklash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday o'yinlardan bayram ertaklari, har xil kechalarni tashkil etishda, masalan, laparni kim ko'p aytadi, mahallamizning keksalarini taniymizmi? Ularning xulqimiz haqidagi fikrlari bilan tanishmisiz, ular nima deb nasihat qiladilar kabi muloqotlar yaxshi natijalar beradi.

Tarbiyachilar va ota-onalar maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq madaniyatini shakllantirish ahvolini kuzatishlar natijasida quyidagi xulosaga keldik:

- bola shaxsi bilan oila a'zolari va ular atrofidagi kishilar o'rtasida xulq madaniyatini aniqlashda turli tadbirlar o'tkazish va ularning yutuqlarini aniqlash;
- milliy qadriyatlarimiz bo'lgan an'analari, udumlar, urf-odatlarimizning bolalar yoshiga moslarini tanlash, ularning natijalarini, ta'sir doirasini aniqlash va bog'chalarda mashg'ulotlar jarayonida joriy etish;
- mashg'ulotlarda asosan mehnat an'alariga e'tiborni qaratish;
- an'alarimiz, udumlarimiz, urf-odatlarimizga doir tadbirlarni tashkil etishda ota-onalarni jalb etish;
- xulq-odob madaniyatini shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan unumli foydalanish;
- o'zbek mutafakkirlarining xulq madaniyatiga oid ta'limotlaridan mashg'ulotlarda foydalanish .

Xulosa qilib aytganda, qaysi jamiyatda yaxshi xulq qaror topsa, o'sha jamiyatdagi kishilarning hayoti farovon, turmushi tinch, odamlari piru badavlat bo'ladi.

Umumiy xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq madaniyatini shakllantirish muhim pedagogik muammo bo'lib hisoblanadi. Chunki madaniyat – jamiyat va insoniyat taraqqiyotining muayyan darajasi bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida inson tomonidan yaratilgan milliy qadriyatlar vositasida shaxs ma'naviy kamolotida, ya'ni xulq madaniyatini shakllantirishda o'z ifodasini topadi. Bolalar muassasasida katta yoshdagi bog'cha bolalarida xulq madaniyatini shakllantirish, muomala-munosabat ma'yorlarini tarkib toptirish, gigiyenik talablarga rioya etish jarayonida tarkib topib boradi. Xulq madaniyatini tarkib toptirishda xalq og'zaki ijodi, mutafakkirlarimiz axloqiy qarashlaridagi boy nazariy va amaliy ta'limoti asos bo'la oladi. Bu jarayon bog'chalarda o'zaro sog'lom munosabat vujudga keltirish, ota-onalar, tarbiyasilar va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, katta yoshlilar bilan tarbiyachilar o'rtasidagi munosabatlarning ta'sir doirasini faollashtirish, xulq-madaniyatiga doir mashg'ulotlar izchilligiga rioya etish, mashg'ulotlar uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgandagina samarali amalga oshirish mumkin. Biz bunga Qashqadaryo viloyatidagi qator bolalar bog'chalarida kuzatishlar va pedagogik tajriba-sinov ishlarini olib borish jarayonida ishonch hosil qildik.

Birinchi bob bo'yicha qisqacha xulosa.

1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlardan foydalanish.
2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini shakllantirishda milliy an'analar, urf-odatlar, udumlar va rasm-rusamlardan foydalanish.
3. Maktabgacha tarbiya muassasalarida xalq o'yinlaridan ko'proq foydalanish.
4. O'zbek xalqining an'analari, urf-odatlari, udumlari, rasm-rusumlariga oid to'plam chop etish, bunda, ayniqsa, maktabgacha tarbiya bilan shug'ullanuvchi mutaxassis olimlar faoliyat ko'rsatishsa, maqsadga muvofiq.
5. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini o'yinchoqlar vositasida tarbiyalash.
6. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini sinfdan tashqari ishlar vositasida shakllantirish.

II.BOB. MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARDA MILLIY QADRIYATLAR VOSITASIDA XULQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI VA YO'LLARI.

2.1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq madaniyatini shakllantirish yo'nalishlari va yo'llari

Har bir pedagogik muammoning o'ziga xos samarali yo'nalishlari mavjud bo'lib, mazkur muammoni hal etish yo'llarini belgilab beradi. Maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalarni har tomonlama shakllangan, barkamol shaxs qilib tarbiyalash maqsadida amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya jarayonining o'ziga xos yo'llari mavjud.

Xulq madaniyatini shakllantirishning samarali yo'llariga bolalar faoliyati, oila a'zolari, tarbiyachi faoliyati, tarbiyachi va bolalar o'rtasidagi munosabatlar, bolalar bilan tengqurlari o'rtasidagi munosabatlar, ular faoliyatining mazmuni kiradi.

1-yo'nalish: Faol faoliyat. Ya'ni yaxshi tarbiyachi faoliyati uni rang-barang, qiziqarli, maqsadli, izchil tashkil etish hamda faoliyat turlarining o'zaro mustahkam aloqasini ta'minlashga bog'liq. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda asosan, mashg'ulotlar, o'yin, sayr, kuzatishlar hamda madaniy-maishiy faoliyat jarayonida xulq madaniyati shakllantiriladi. Bunday yo'nalish, ayniqsa, milliy qadriyatlar asosida samarali kechadi.

Milliy qadriyatlarimiz bo'lmish an'analar davomida bolalarning fikri, qarashlari, his-tuyg'ulari, xohishi, irodasi, tafakkuri, dunyoqarashi, xulq madaniyati rivojlanib boradi.

Bolalarning his-tuyg'alari va ularni namoyon etuvchi sezgi va kayfiyatlar yig'indisi amaliy faoliyat negizini tashkil etib, ularning atrof-olamga, ijtimoiy ong shakllariga munosabati natijasida xalqning ma'naviy qadriyatlarida namoyon bo'ladi. Masalan, an'analarimizdan biri bo'lgan hasharni olaylik. Bu faoliyat jarayonida bola oilada yoki bog'chada uning natijasini ko'radi va bajargan ishidan, kattalar oldida mehnat faoliyati natijasidan faxrlanadi. Kattalarning irodasiga, xatti-harakatiga qarab o'rnak oladi, hayotida tenglashishga, izdosh bo'lishga harakat qiladi. Chunki bola hayotidagi kattalar dunyosidan ayri yashashi, qiyinchiliklarni sezmasligi mumkin emas. Bunday munosabatlar asosida bolalarning xulqi, madaniy dunyosi shakllanib boradi.

Yaqin va uzoq o'tmishdagi madaniy hayot va uning tarbiyaviy ahamiyati, undagi yutuqlar, kamchiliklar, ularning asl sabablari haqida ma'lumotlar berib borish muhim

ahamiyatga ega. Chunki bolalarni voqyea- hodisalarga haqqoniy boha berishga o'rgatish faoliyat jarayonida ularda xulq madaniyatini shakllantirishning muhim pedagogik talabi hisoblanadi. Chunki bu o'rinda bolalarning irodasi, e'tiqodi, imkoniyati, dunyoqarashi, ularning xulqiy, madaniy darajasi shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunday ekan, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar xulq madaniyati, ularning ongli faoliyati, bilim saviyasi, e'tiqodi – tarixiy tajribalarga, an'analar, udumlar va urf-odatlariga munosabati darajasida tarkib topadi va egallangan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar turmush faoliyatida, o'zining jamoatchilik, bog'cha, oila, do'stlari oldidagi burch va vazifalarini bajarishlarida namoyon bo'ladi. Bolaning xulq madaniyati o'zini tuta bilishi, so'zlashish qoidalariga rioya etishi, yurish-turishi, turmushida, ya'ni faoliyat jarayonida amlaga oshadi va rivojlanib boradi. Milliy qadriyatlarimiz bo'lmish an'analar, udumlar va urf-odatlarni o'rganish, oila, bog'cha, jamoatchilik hamda mahallalarda qiziqarli holda amalga oshiriladi. Bolalarni qiziqtiradigan milliy qadriyatlarimiz vositasida diafilmlar, rangli-rasmlar, kitoblar, bolalar uchun madaniy dam olish markazlari, muassasalar (kino-teatr, folklor dastalar, xalq teatrlari, san'at saroylari, madaniy markazlar va hokazolar) kichkintoylar shaxsining ma'naviy ehtiyojlarini, qiziqishlarini va manfaatlarini qondirish uchun imkoniyat yaratadi. Xulqiy madaniyat qirralarini yaxlit shakllantirishga ijobiy ta'sir etadi. Lekin bolalar maishiy faoliyati faqat milliy qadriyatlar vositasida paydo bo'lgan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirilmaydi. Balki ularning xulq madaniyatiga oid tushunchalarni erkin, ongli va adolat bilan hal eta olishlar, ular haqida o'z munosabatlarini bildirish olishiga, to'g'ri xulosa chiqara olish hamda ularni avylash, asrash, sevish, umrboqiyiligini ta'minlashga ham o'rgatiladi. “Men va do'stlarim”, “Men mehmondo'stman”, “Mening yaxshi fazilatlarim”, “Men yaxshi bolaman” kabi tushunchalar shakllantiriladi.

Bunday tushunchalar an'analar, udumlar, urf-odatlar asosida bolalarda insoniy qiziqishlarni ko'ra bilishi, his etishi, milliy xalq madaniyatini o'rganish, o'zligini anglashga ehtiyoj sezish, inson mehnatining o'rnini to'g'ri tushunish, insonparvarlik, mehr-oqibat, iymon-e'tiqod, o'z Vatanini sevish va uni e'zozlash, Vatanga muhabbat, sadoqat, ota-ona, qarindosh-urug'lar, keksalarga hurmat, kichiklarni asrash va boshqalarga muruvvatli, saxovatli bo'lish kabi fazilatlar shakllantirilib boriladi.

Demak, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida oilaviy, maishiy xulq madaniyatini shakllantirishda ijtimoiy ong, yaratiladigan madaniy

muhit, amalga oshiriladigan faoliyat turlarida pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish talab etiladi. Bular:

- milliy qadriyatlarni o'rganishda o'zaro samimiy muloqot, bir-birini hurmat qilish;
- madaniy muhit yaratishda sog'lom psixologik sharoit yaratish, zo'riqish, majburlash, rejaga to'liq amal qilishga chek qo'yish, ya'ni faoliyatning rang-barangligi, mazmunan boyligiga e'tibor berish.

Tadbirlarni bolalarning talab va ehtiyojiga, qiziqishiga qarab quyidagicha tashkil etish:

- faoliyat jarayonida to'g'ri maqsad qo'ya olish;
- madaniy muhit, faoliyatni bolalardagi madaniy, xulqiy, ruhiy qadriyatlar shakllanishiga yo'naltirish;
- faoliyat mazmuni, shakli, uslubi, usuli va vositalari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashdan iborat.

Demak, xulq madaniyatini shakllantirishda ta'lim-tarbiya tizimini – madaniy muhit, madaniy faoliyat bosqichlaridan iborat andazasini tashkil etish, ularni har tomonlama anglashga, milliy qadriyatlarni saqlashga imkoniyat yaratadi.

Bolalar ma'naviy dunyosining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri – kattalarni obro'li inson, namuna deb bilishlari, maslahat olishlari, taqlid qilishlari va lozim bo'lgan paytda har qanday yordamni olishlariga ishonch hosil qilishlari. Hyech qanday tarbiya uslubi, bolalarga namuna kuchidek ta'sir ko'rsata olmaydi. Namuna taqlid uchun asosiy manba rolini o'ynaydi. Shaxsiy namuna esa tarbiya berish sifatida o'sib kelayotgan yosh avlodning ongi va xulqiga ta'sir ko'rsatuvchi katta yoshdagi kishilar xatti-harakatlari va boshqa faoliyatlari majmui. Kattalarning namuna sifatidagi tarbiyaviy ta'siri shuning uchun ham muhimki, ular aynan bolalarning taqlid qilishi uchun jonli manba bo'lib hisoblanadi.

Bolalar ruhiyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – ko'pincha o'zi sezmagan holda namuna olsa arziydigan, taqlid qilishga loyiq birorta ijobiy shaxsga tenglashish, unga o'xshash istagi.

Misol uchun milliy qadriyatlarimizdan biri bo'lgan mehmon kutish qoidalarini olaylik. Har bir xonadonga, albatta, mehmon kelib turadi. Uyga mehmon kelganda qo'lga suv quyib yuvdirganlar, ketishdan oldin ham qo'llariga suv quyib kuzatganlar. Qo'lini yuvgach, mehmonlar "Rahmat, baraka top, murodingga yet" deb duo qilishgan.

Shunday iboralar haligacha saqlanib kelinmoqda va avloddan-avlodga o'tib, ular ongiga singib ketgan. Yoki mehmon kelsa, oyoq kiyimini o'ngarib, tartibli qo'yishi, ketayotganda "Xush kelibsiz, yana kelib turing!" kabi iboralar bolalarni tarbiyalab boradi.

Namuna sifatida katta yoshdagi bolalarning obro'si va kishilar bilan muomalalari, ayniqsa, bolalar xulqi hamda fe'l-atvorining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bolalar odatda ko'p vaqtini bog'cha jamoasi davrasida o'tkazadi va jamoaning xatti-harakatlarini onsonlik bilan qabul qiladi. Bu xatti-harakatlarni o'z tajribalarida takrorlaydilar. Ulardan sababi so'ralgan paytda, "o'rtog'im shunday qiladi, bog'cha oram shunday qiladilar yoki uyda onam shunday qiladilar, dadam shunday qiladilar, buvim shunday deganlar", kabi javoblarni eshitish mumkin. Bolalarga ota-onalarning va bog'cha jamoatchiligining xatti-harakatigina emas, balki madaniyatligi, og'zaki nutqi, savol-javoblari ham ta'sir qiladi. Ma'lumki, so'z qudratli kuchga ega. Madaniyatli inson o'ylab, tartib bilan so'zlaydi. "Yumshoq, mahribonlik bilan aytilgan so'z shunday qudratli kuchki, uning bilan hych qanday jazo tenglasha olmaydi", degan edi. P.F.Lesgaft.

Oilaviy va madaniy-maishiy xulq madaniyatini oshirishning samarali yo'llari ota-onalarning bolalarga sarflagan vaqtlari bilan emas yoki tarbiyachining bunda kunning o'tishigagina emas, balki ularning tarbiyasiga, oilaning turmush tarziga, jamoatchilik obro'si va shaxsiy namunalariga bog'liq. Oiladagi ota-onalar, bog'chadagi tarbiyachi va boshqa xodimlar, hatto katta yoshdagi opa-ukalar hamda singillarning o'zaro munosabatlari xulq madaniyatining boshlan0ich shakllanishida o'ziga xosligini ko'rsatadi. Bolalarda xulq madaniyatini shakllantirishda an'analar, udumlar, urf-odatlar muhim vosita sifatida yordam beradi. Bunday an'analar, udumlar va urf-odatlarning bolalarga namuna ko'rsatadigan tarbiyaviy ta'sirlari saviyasini anaiqlashda quydagilarga e'tiborni qaratdik:

- bolaning familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, oila a'zolarining soni, nechanchi farzand ekanligi, oilada ko'pincha qanday an'analar tez-tez bo'lib turishini bilish;
- oiladagi tadbirlarning nomi, oila a'zolarining bo'sh vaqtlarida nima bilan shug'ullanishlari, ularning hunarlari, iqtisodiy tarbiyaga oida olib boradigan ishlari;

- oilada bolalarga kim ko'proq e'tibor beradi, ertak, rivoyat aytuvchi kim? Oila a'zolarining o'zaro bir-birini hurmat qilishi, kiyinishi, oila muammolarini hal etishda bolalarning ishtirok etish, etmasligi va hokazo.

Oilda avlodlar o'tib ketishi bilan oilalardagi ba'zi salbiy tarbiya uslublari o'z-o'zidan yo'qolib ketadi, deyish o'rinsiz. Hatto hozirgi davrdagi ba'zi ziyoli oilalarda ham ota-onalarning bolalar tarbiyasidagi bosiqlik, vazminlik, ularga bo'lgan hurmat, diqqat-e'tibor, odoblilik va boshqa xususiyatlar yetarli deb bo'lmaydi. Natijada, ota-onalar, tarbiyachilar, bolalar munosabatlarida turli ko'rinishdagi kelishmovchiliklar, salbiy xatti-harakatlar shakllana boshlaydi. Agar oilada ota-ona bilan bolalar o'rtasida o'zaro muloqot uchun shart-sharoitlar mavjud bo'lib, qon-qarindoshlik munosabatlari amaliyotda yaxshi bo'lsa, ota-onalar obro'li bo'lib, tarbiya usullaridan foydalana olsalar, bunday oilada bolalar erkin kamol topadilar, o'z mulohazalarini ham ochiq, ro'y-rost aytishdan tortinmaydilar. Bola kattalarning so'zlari, xatti-harakatlari, ya'ni berayotgan va'dalari, yurakdan qilinayotgan muomalalariga yoki do'q-po'pisalaridan qat'i nazar, ularga ishonishi lozim. Masalan, bolaga uy-ro'zg'or ishlarida ota-onalarning topshiriqlarini o'z vaqtida bajarganligi va hokazolar uchun dam olish kuni kino yoki teatrga olib borishga va'da berilgan bo'lsa, har qanday qiyinchiliklarga qaramasdan, va'daning ustidan chiqishi lozim. Oiladagi ijobiy an'analarni bajarish jarayonida katta yoshdagi kishilarning namunasi bolalarni o'ylashga, fikrlashga, ijtimoiy hayotni tushunishga yo'llaydi. Chunki an'analar, udumlar va urf-odatlar ma'naviy omillar sifatida bolalarga hayotning u yoki bu jabhasida o'zining yoki boshqalarning xulqiy muammosini baholashga yordam beradi. Bunda oilada va bog'chadagi an'analar, udumlar, urf-odatlarni qo'llagan holda qiziqarli tadbirlarni tez-tez o'tkazib turish, bolalar tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadi. Bunday samarali yo'llar bolalarni boshqalarga hurmat-ehtirom bilan muomala qilish, madaniyatli bo'lishda asosiy rol o'ynaydi. Natijada, milliy qadriyatlar vositasida yurish-turish, o'zini tuta bilish, madaniy muomalada ijobiy sifatlar tarkib topadi. Bu xislatlar nazarimizda bolalari bilan do'st, ularga diqqat-e'tibor bilan qaraydigan, qayg'ulariga hamdard, xursandchiliklarini baham ko'ruvchi, sabr-toqatli ota-onalar bo'lgan oilalarda mustahkamlanadi.

Tadqiqot ishlarida isbotlanganidek, xulq madaniyatini shakllantirish quydagi **yo'nalishlarda bajarilsa, uning samaradorligi yanada oshadi:**

-bog'cha o'zining barcha tarbiyaviy faoliyatini oiladagi tarbiya jarayoniga izchil yo'naltira olsa;

- tarbiyachilar jamoasi oila bilan o'zaro hamkorlikda milliy qadriyatlar asosida xulq madaniyatini tarbiyalash talablarini to'g'ri tashkil eta olsa;
- mahalla, bog'cha, oila, xalq ta'limi bo'limi jamoatchilikni tarbiya jarayonida bir maqsadga yo'naltira olsa;
- oila an'analari, udumlari va urf-odatlaridan foydalanishda bog'cha va tarbiyachilar hamda bolalar hamkorligi o'rnatilsa.

Bu masalalarni ijobiy hal etishda bog'cha xodimlari, mahalla qo'mitasi, xalq ta'limi bo'limlarining tarbiyaviy imkoniyatlari kengayayotgan davrda chnada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Demak, mamlakatimizda umumiy ta'lim-tarbiya mazmunini sifat jihatdan tibdan isloh qilish, aniqrog'i, yangilash asosida bolalarni har tomonlama kamol toptirish uchun alohida tarbiyaviy bilim berishni har qachongidan ham yuqori saviyaga ko'tarish bizning muqaddas burchimiz.

2.2. Milliy qadriyatlar vositasida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini shakllantirish omillari.

Kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, ota-onalarga tarbiyachilarning milliy qadriyatlarimiz bo'lgan an'analari, udumlar va urf-odatlar vositasida bolalarda xulq madaniyatini tarbiyalash samarasi ko'p omillarga bog'liq. Xususan:

- a) ota-onalar savodxonligiga;
- b) bolalar uchun shart-sharoit yaratib berilishiga;
- v) oilaviy an'analari, udumlar, urf-odatlarga oid tadbirlarni o'tkazib turishlariga;
- g) oilada katta bo'g'in – bobo va buvilar tarbiyasiga;
- d) oilaning moddiy, ayniqsa, ma'naviy ta'minlanishiga bog'liq deb ayta olamiz.

Hozirgi kunda Respublikamizning ko'pgina bolalar bog'chalarida xulq madaniyatini shakllantirishda quyidagi shakllardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- ota-onalar maktabi ;
- milliy madaniyatimizni targ'ib-tashviq qiluvchi xalq etnografiyasi maktabi;
- ma'naviy-ma'rifiy kengash qoshida tashkil etilishi lozim bo'lgan ota-onalar maktabi;
- bog'cha qoshida tashkil etilgan xalq etnografiyasi to'garagi;
- teleko'rsatuvlar, radioeshittirishlar, oynomalar.

Shuningdek, ota-onalar va tarbiyachilarga umumiy tarbiyaviy bilim berishda olimlarning tavsiyalari, tarbiyaga doir xalq pedagogikasi tajribalari, shahar, tuman,

qishloq mehnat jamoalari, shuningdek, mehnat va urush faxriylarining tavsiyalariga tayanilsa, samaradorligi oshadi. Ma'lumki, oilada hamda bolalar muassasalari tarbiyasi samaradorligini hamda umummadaniy saviyasini oshirish ma'lum darajada ota-onalar, katta yoshdagi kishilar savodxonligiga bog'liq. Bog'cha tarbiya markazi rolini o'ynashi uchun tarbiyachi hamda ota-onalarning maqsad va vazifalari, ularning oilaviy faoliyati bir-birlari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi shart. Bu borada bog'chaning eng muhim vazifasi ota-onalarga bolalarning mehnati, an'analarga, udumlariga va urf-odatlariga oid tarbiyaviy tadbirlarni ko'ngildagidek uyushtirishda amaliy yordam berishdir. Tarbiyachi va ota-onalar o'rtasida ijtimoiy-tarbiyaviy muhitni sog'lomlashtirish borasidagi ishlarni jonlashtirish hamda takomillashtirish oila va bog'cha aloqasini mustahkamlovchi omil. Bu borada o'zaro belgilangan va tasdiqlangan dasturlar mahalliy sharoitdan kelib chiqilgan holda rejalashtirilgan ishlanmalar, bunday tadbirlar uyushtirishni tuzuvchi ota-onalar, o'zaro hamkorlikdagi maktab, dorilfununlar, tajribali ijodkor ma'ruzachilar asosiy va hal qiluvchi rol o'ynashini ham ta'kidlab o'tmoq lozim.

Ayniqsa, xulq madaniyatining samaradorligini oshirishda bog'chalarda o'tkaziladigan ota-onalar yig'ilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Maqsadga muvofiq, mazmunli tashkil etilgan yig'ilishlar, fikrlashlar, maslahatlar, tarbiyaga oid munozaralarda mehnatsevarlik, vijdonli bo'lish, mustaqillik, yurish-turish madaniyati, ko'pchilik oldida o'zini tuta bilish, mehr-muhabbat, adolatlilik haqida fikr yuritiladi. Bog'chaning ota-onalar bilan aloqa qilishida tarbiyachilarga yaqindan yordam beruvchi bo'g'in – bog'cha ota-onalari qo'mitasi. Mazkur qo'mita qabul qilingan umumiy qoidalar asosida bog'cha hayotiga sayrlar, ko'ngil ochish soatlarini kiritishi lozim. Bolalarni yoshligidan boshlab, axloqan pok, ma'naviy dunyosini boy etib tarbiyalashda bu tadbirlarning ahamiyati benihoya. Xalqimizda yomonlikka qarshi kurash bo'lmagan joyda yaxshilik tug'ilmaydi, degan ma'noli gap bor. Bu gap bog'cha bolalari tarbiyasiga taaluqli. Oilaviy, maishiy xulq madaniyatini shakllantirishda, oilaviy tarbiyani ijtimoiy tarbiya bilan almashtirish bolalar kamolotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, bog'chalarga bormay, faqat oilada o'sgan va voyaga yetgan bolalar maktabga borganlarida o'z tengqurlari ichida ko'p jihatlari bilan ajralib turadi. Oilaning bolalarga moddiy va ma'naviy g'amxo'rligini, ko'rsatayotgan tarbiyasini oilaviy tarbiya bilan almashtirib bo'lmaydi. Faqat o'zaro hamkorlik masalani ijobiy hal etishda samarali yo'llardan biri. Kuzatishlarda shu narsa ma'lum bo'ldiki, bolada ota-onasining mehri,

erkalashlari asosida ulardan ham ota-onalariga, qarindosh-urug'lariga bo'lgan hissiyotlari shakllanadi. Bunday paytda oilaviy an'analarga oid juda ko'p tadbirlar o'tkaziladi. Bog'chada esa bu narsa qisqa vaqtga to'g'ri keladi. Bog'cha hamda oiladagi tarbiyaviy ta'sir o'zaro birlashganda, uning samarasi kuchli bo'ladi. Bir tomondan, bolaning ota-onaga bo'lgan mehr-muhabbati natijasi o'z oilasiga, tengqurlariga, atrofdagilariga bo'lgan munosabatlarida o'z ifodasini topsa; ikkinchi tomondan, bolalar o'z ota-onalariga ta'sir ko'rsatishida o'z ifodasini topadi. Xulq madaniyatini, ularning yurish-turishi, qiziqishi, intizom saqlashi kabilarda o'zini namoyon etadi. Shu asnoda bolalar o'z xulq-atvorlarini tartibga soladilar, ota-onalari va kattalarning hurmatlarini joyiga qo'yadilar. Bolalar ulg'aya boshlagach, an'analari, udumlar, urf-odatlarimizning o'z o'rnini bila boradilar, bunday urf-odatlarda o'z muvaffaqiyatlarini bilib oladilar. Shuning uchun bolalar nimalarga qiziqishlarini, qanday inson bo'lishlari-yu, kimlar bilan do'st-o'rtoq bo'lishlarini mumkin qadar ertaroq bilib olishlari muhim. Bunday tarbiyaviy tadbirlarning mazmunli tashkil etilishida bog'cha muassasalarimas'ul. Faqat bog'chagina tarbiyachi ishining samaradorligiga zamin yaratadi. Bu vazifalar bajarilishining samarali yo'llari ota-onalarni ruhiy, ta'lim-tarbiyaviy bilimlar bilan qurollantirmay turib, ko'zlagan maqsadni amalga oshirib bo'lmaydi. Bola tarbiyasida oila, bog'cha va jamoatchilik hamkorligining dolzarbligi ham mana shundadir. Demak, bolalarda milliy qadriyatlar asosida xulq madaniyatini shakllantirishda ma'lum pedagogik talablar mavjud bo'lib, buni quyidagi 6-jadvalda ko'rish mumkin: Ushbu pedagogik talablar asosida an'analarning tayyorgarlik bosqichini tashkil etish, bolalarda qadriyatlarda aks etgan ijobiy munosabatlarning qator mezonlarini ishlab chiqishga olib keldi.

Asosiy masad – aniq, puxta maqsadning samarali yechimini ta'minlovchi kechalar, tadbirlar mohiyatini milliy asosda, muhim tuyg'ularni shakllantirish uchun asosiy yo'llanma hisoblanadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda xulq madaniyatini shakllantirishda qo'yiladigan pedagogik talablar

6-jadval

T/r	Tayyorgarlik bosqichi	Asosiy bosqich	Yakuniy bosqich	Maqsadga erishganlik natijasi
1	Mavzu tanlash, texnik vositalardan foydalanish. Xalq og'zaki	O'tkaziladigan tadbirlarning mazmuni, metod va usullarini belgilab ztkazish	Tadbirni o'tishidan asosiy maqsad – ta'sir darajasini belgilash, bolarning erkin paytlarida,	Ertalabki, kechki soatlarda, sayrlarda kuzatish, bolalarda xulq madaniyatining shakllanganligini

ijodi	tushunchalariga ega qilish	turmush davom bolalarda ta'sir belgilash	tarzida ettirishi, doimiy doirasini	aniqlash, oldingilari bilan taqqoslash
-------	-------------------------------	--	--	---

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda xulq madaniyatini shakllantirishda ma'lum pedagogik shartlarga amal qilish talab etiladi. Bu talablar quydagilardan iborat:

- tarbiyachining ijodkorligi;
- tadbirlarning maqsadga muvofiq va maroqli o'tkazilishi;
- an'analarning turli shakllari vositasida, masalan: mehnat an'anasi, hashar va boshqalar.

Milliy qadriyatlarimiz vositasida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning xulq madaniyatini shakllantirishga ijobiy munosabat, faollik, o'tmishni o'rganishga, an'alarimiz, udumlarimiz, urf-odatlarimizga hurmat ko'rsatishni o'stiradi, mustaqil ijodkorlikni shakllantiradi. Bu bilan bir qatorda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning o'zlari bir narsa his eta olishlari, biror bir mas'uliyat seza olishlari uchun ularga oz-ozdan topshiriqlar yuklash, izlanishlar olib borishga ham harakat qilishlari, o'zlari mustaqil ishlashlari, dunyoqarashlarini shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda milliy qadriyatlarasosida xulq madaniyatini shakllantirishga qaratilgan ishlarning quyidagi turlari o'z samarasini ko'rsatadi:

1. Milliy qadriyatlar asosida egallangan bilimlarning maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar.
2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning milliy qadriyatlar vositasida xulqiy madaniyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi an'analar, udumlar, urf-odatlar, maishiy qadriyatlar asosida uyushtirilgan ijodiy o'yinlar.
3. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning amaliyotida bilish faoliyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi vositalar.
4. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning dunoqarashini shakllantirishga yordam beruvchi vositalardan: sayrlar, diafilmlar, bolalar teatri, har xil tantanalardan foydalanish.

Bunday mustaqil ishlarni tashkil etishda quydagi **vositalarga** asoslanadi:

- a) milliy qadriyatlar sanalgan an'analar, udumlar, urf-odatlardan foylanish;

b) allomalar merosi, musiqa, xalq og'zaki ijodi, laparlar, maqollar, ertaklar, rivoyatlar;

v) teleko'rsatuvlar, oqshom ertaklari, kuylaymiz-quvnaymiz, kichkintoylar davrasida ko'rsatuvlar;

oilaviy-maishiy an'analar, rasm-rusumlar, avlodlarning turmush tajribalari.

Bu kabi vositalar yetarli tayyorgarlik, mahorat, tajriba va mustaqillikka asoslangan holda tashkil etilsa, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning xulq madaniyatini shakllantirishga yordam beradi. Muvaffaqiyatlar natijalari maktabgacha tarbiya yoshidagi bola xulqi, xatti-harakatlari, xulq madaniyatining asosiy ko'rinishlari sanalgan insonparvarlik, mehnatsevarlik, milliy g'urur, mehr-oqibat, iymon, sabr-qanoat, o'z-o'zini tuta bilish, nazorat qilish, kiyinish odobi kabilarda namoyon bo'lib, atrof muhitga munosabati, mehnat faoliyati, bolalarning hayotda bajarishi lozim bo'lgan faoliyati orqali o'z samarasini ko'rsatadi.

2.3. Milliy qadriyatlar vositasida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini shakllantirish usul va vositalari

Ta'lim tizimida islohotlar amalga oshirilayotgan hozirgi sharoitda maktabgacha tarbiya muassasalarida ta'lim-tarbiya sohasida ham dolzarb muammolarni hal etish vazifasi qo'yilmoqda. Chunki bolalarni maktabgacha tarbiya yoshidan boshlab, ularning xulq-atvori asosan oilada so'ngra bog'chada shakllanadi.

Jamiyatimiz tubdan isloh qilinayotgan, ya'ni, aniqrog'i yangilanayotgan hozirgi sharoitda bolalarni ma'naviy-axloqiy rivojlantirishda oila hamda bog'chaning ahamiyatini oshirish dolzarb masala bo'lib turibdi. Mastuhkam tarbiya, chuqur ma'naviyat, imon va diyonat zasinidagi odob-axloq bo'lmasa, faqat jamiyat rivojlanishining o'zidagina emas, balki shaxsiy turmush sharoitida ham hych narsaga erishib bo'lmaydi.

Jamiyat a'zolarining bir-birlariga bo'lgan insoniy munosabatlari jamiyat taraqqiyotining zaruriy sharti hisoblanadi. Chunki har bir kishining haqiqiy insonparvarligi, boy ma'naviy go'zalligi Vatan, jamiyat manfaati yo'lida, inson osoyishtaligi, baxt-saodati yo'lida qayg'urishida o'z ifodasini topadi. Odob-axloq, xulq-atvor madaniyati ilk go'zallikdan boshlab, oila tarbiyasi ta'sirida hamda maktabgacha tarbiya muassasalarida shakllanib boradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Aqliy zakovot va ruhiy-ma'naviy salohiyat ma'rifatli insonning ikki qanotidir", – deb ta'kidlaganlari bejiz emas.

Bolalar bog'chalarida xulq madaniyatini shakllantirib borishda quydagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq:

- milliy qadriyatlar asosida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini shakllantirish usullari va vositalaridan foydalanishda oddiydan murakkabga, mavhumlikdan aniqlikka o'tish, o'zlashtirish, tajribaga suyanish hamda tarbiyachining ijodkorligi va pedagogik mahoratiga tayanish;

- milliy an'ana, udum va urf-odatlardan foydalanishda mashg'ulotlarning shakl va uslublari, vositalarini mazmunan tanlay bilish, tanlangan mavzularning maqsadi, tarbiyaviy ahamiyati, samarasi haqidagi bilimlarga ega bo'lish;

- maishiy-madaniy tarbiyaga doir bilimlarni o'rgatishda oila a'zolarining madaniy saviyasi, e'tiqodi, an'analarga munosabati, oila muhitini hisobga olish, xalq teatri,

musiqqa, madaniyat uyi, havaskorlik va folklor dastalari kabi vositalardan foydalanish va ularga ega bo'lish.

Lekin maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini tarkib toptirishda eng muhim talab – bu bolalarning kundalik hayoti faoliyatini to'g'ri tashkil etish. Bunda asosan ular yashab turgan muhit va tarbiyachining milliy qadriyatlarimiz bo'lgan udum va urf-odatlarimiz bilan an'analarimizni to'g'ri tanlay olish uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil eta olishdadir. Chunki bolalar o'z murabbiylariga o'ta ishonch bilan qaraydilar va unga ergashishga, tenglashishga harakat qiladilar.

Shuning uchun tarbiyachi xulq madaniyatini shakllantirishda bolalarning xulq me'yorlariga rioya etishlariga alohida e'tibor beradi. Zero, katta bog'cha yoshida bu talablarni bajarish mustahkamlana boradi. Pirovard natijada, xulq-odob me'yoring mustahkamlanishiga olib keladi. Masalan, bolaning ertalabki salom bilan guruhga kirib kelishi, kiyinishdagi batartiblik, o'zini tutishi, so'zlashishda, xatti-harakatlardan tortib, o'yinchoqlariga munosabati, guruhdagi ozodalikva boshqa tartiblarga rioya etish, ovqatlanish qoidalariga rioya etish, mashg'ulotlarda o'zini tutishi va faol ishtirokigacha kuzatib boradi va ma'lum maqsadda yo'l-yo'riqlar beradi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning o'ta ta'sirchanligini hisobga olib, milliy an'analar, udumlar, urf-odatlar, marosimlardan foydalanishda xulq-odob madaniyatini shakllantirishda muayyan me'yorga rioya qilish zarur. Foydalanilgan udumlar, urf-odatlar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning ta'sirchanligini hisobga olgan holda tanlanishi va ma'lum axloq me'yorlarini tarkib toptirishda og'irlik qilmasligi, zeriktirmasligi, o'yin tarzida, yuqori kayfiyatda o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Mazkur mashg'ulotlar oddiy nasihatgo'ylik, tanbeh, tantanalardan chetda bo'lib, tabiiy sharoit, samimiy, iliq muhit bilan ta'minlanishi muhimdir. Ba'zida tarbiyachi aytmoqchi bo'lgan fikrini bolalar qisqa savol-javoblar, luqmalar bilan ilg'ab olishlari uzoq nasihatlardan yaxshi natija beradi. Pedagogik tajriba – sinov ishlari olib borgan qator bog'chalar misolida ishonch hosil qildik. Lekin bu ishonch o'zbek xalqining milliy qadriyatlaridan foydalanib o'tkazilganligi bilan alohida diqqatga sazovor.

Bu mashg'ulotlar tarbiyachi ishining samarali bo'lishiga, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar qiziqishini oshirishga yordam beradi. Biz bunga asoslanib, milliy qadriyatlarimiz bo'lgan an'analar, udumlar va urf-odatlarni o'rganish vositasida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini shakllantirishga doir mashg'ulotlar va tadbirlar o'tkazdik.

Mashg'ulotlarni mazmunli va qiziqarli o'tishi uchun yaxshi tayorgarlik ko'rildi. Qo'rgazmali qurollar, foydalanish uchun kerakli ashyolar, shart-sharoitlar bo'lishi muhim rol o'ynadi. Chunki an'analar, udumlar va urf-odatlarini tanlashda maktabgacha tarbiya yoshidagi bola ko'z o'ngida ota-bobolarimiz siymosi gavdalanadigan bir tushuncha – ko'rgazmadan foydalanish bolalarning qiziqishi va bilimini oshirishni ta'minlaydi.

Masalan, Jizzax shaxridagi 10-bog'cha maktabgacha katta yoshdagi guruh mashg'ulotida tevarak atrof bilan tanishish bo'yicha "O'lkamizda "Mehrjon" bayrami" mavzusida mashg'ulot o'tkazildi.

Maqsad:

- maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga hosil bayrami – "Mehrjon" bayramining nomlanishi bo'yicha tushuncha berish;
- bu bayramning har yili kuz faslida o'tkazilishi, unda dala mehnatkashlari mehnat natijalarining namoyish etilishi, qovun hamda uzum sayllarining o'tkazilishi haqida so'zlab berish;
- maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar qalbida o'zbek xalqining mehnat an'analariga muhabbat tuyg'usini singdirish;
- qadimda ota-bobolarimiz ishtirok etgan milliy-mavsumiy bayram sayllari bilan tanishtirishni davom ettirish va ular orqali qadriyatlarimizga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otish.

Mashg'ulotda o'yin, og'zaki savol-javob uslublaridan foydalanildi. Kerakli jihozlar: sabzavot va poliz ekinlari, har xil mevalardan ko'chma do'konchalar tashkil etish, muomala uchun so'm.

So'ng bolalar "Hosil bayrami" o'yiniga taklif etildi. Eng avval, murabbiy "Hosil bayrami" haqida so'zlab berdi: "Bolalar, biz hozirgi kunda nishonlaydigan "Hosil bayrami"ni ota-bobolarimiz "Mehrjon" deb atashgan. Chunki ona-Yurt saxovati, dehqonlar mehnatining natijasi – bularning barchasi ona-Yer saxovati, mehri orqali barcha hosil yetishadi deb, "Mehrjon" deb atalgan. Hosil bayrami "Mehrjon" kuz faslida o'tkaziladi, unda barcha hosillar olib chiqilib, savdo-sotiq qilinadi. Oshpazlar, savdo-sotiq va madaniyat xodimlari xizmat ko'rsatadilar. Dilrabo qo'shiqlar, raqslar orqali bobo-dehqon mehnati qadrlanadi.

Dehqon mehnatini ulug'lovchi she'rlar yangraydi. O'yin-kulgi, xursandchilik avjiga chiqadi. Chunki bu bayram to'kin-sochinlik, xursandchilik bayramidir. Bolalar,

o'zbek xalqimizning ana shunday go'zal bayramlari bor. Buni yodda saqlang. Bolalar, "Mehrjon" bayramida nimalar bo'lishini bilib oldingiz. Sizlarga katta yoshdagi onalar ko'maklashadi, musiqa to'garagining rahbari va uning bolalari madaniyat xodimlarining rolini, katta yoshdagi opalar savdo xodimi va oshpazlar vazifasini bajaradilar. Sizlar saylga chiqqanlarning vazifasini bajarasizlar".

Bolalar o'zlari mustaqil holda sabzavot, meva, poliz ekinlari yoki boshqa narsalar xarid qilib oladilar. Pul orqali uni "savdo xodimlari" orqali nazorat qilib turiladi. O'yin davomida bolalarning xulq-atvori, yurish-turish va mavzu bo'yicha olgan bilimlarini qo'llash yoki qo'llamasliklari e'tiborga olinadi. Bu o'yinni kattalar yordamida 2-3 marta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning o'zlari mustaqil bajaradilar. Keyinroq o'yinni bilib olish va bajarish davomida uni takomillashtirish tavsia etiladi.

Tarbiyachi o'yin oxirida har bir maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning bajargan ishi yuzasidan to'xtalib o'tadi va mashg'ulotni yakunlaydi.

Mazkur mashg'ulot keyingi rollarga bo'lib o'ynash jarayonida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda yaxshi taassurot qoldirdi. Bu savol-javobdan anglab olindi:

- "Mehrjon" bayrami sizga yoqdimi?
- Yanagi yil ham "Mehrjon" bayramini nishonlaysizmi?
- Nimasi sizga yoqdi?
- Hosil bayramida kim nima sotib oldi?

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning javoblaridan, ularning mamnun ekanliklari sezilib turdi.

- "Mehrjon" bayrami menga yoqdi.
- Endi har yili uni bayram qilamiz.
- Menga "Mehrjon"ning sovg'alari qovun-tarvuz, shirin-shakar mevalar juda yoqdi.
- Biz hamma mevalardan "sotib oldik".

Yana shu Jizzax tumanidagi "Do'stlik" bog'chasining katta yoshdagi guruhlaridan birida "Tevarak atrofni tanishtirish" mashg'ulotida "Ramazon hayiti" mavzusida tadbir ham yaxshi natija beradi.

Maqsad – bolalarning milliy urf-odatlar, milliy qadriyatlarni bilishi, anglashi, e'zozlashi, ularga nisbatan qiziqishini tarbiyalashdan iborat. Bu mashg'ulot orqali bolalarga xulq madaniyati me'yorlarini singdirish, o'zbek milliy qadriyatlarining insonda oliyjanob his-tuyg'ularini tarkib toptirishdan faxrlanish tuyg'usini tarbiyalash.

Mashg'ulotda savol-javob, tushuntirish, og'zaki suhbat uslublaridan foydalanildi. Asosiy tarbiya vositasi teatrlashgan o'yin edi.

Bolalarga, eng avvalo, ramazon oyida tutiladigan 30 kunlik ro'za haqida qisqa suhbat o'tkazildi.

1. Bugun haftaning nechanchi kuni, nomi nima?
2. Hozir qaysi fasl?
3. Bir yilda nechta fasl bor? Nomlarini ketma-ket ayting.
4. Bolalar, Siz qanday baramlarni bilasiz?
5. Ramazon hayiti haqida nimalarni bilasiz? – kabi savollar berildi.

Bolalar javob berganlaridan so'ng, murabbiy mashg'ulotni quydagicha boshlaydi:

Bolalar, bugun Sizlarga Ramazon oyining oxirida o'tkaziladigan "Ramazon hayiti" haqida so'zlab beraman. Ramazon oyi yilda bir marta mehmon bo'ladi. Ramazon har yili 10 kun oldiga surilgan holda keladi. Shunga qarab, ro'zaning oxirigi kuni tugagandan so'ng, ertasi kuni Ramazon hayiti deb belgilanadi. Buning bayram qilinishining boisi Ramazon oyida 30 kun ro'za tutish amalini sog'-salomat ado etib, tutganliklari munosabati bilan xursandchilik etishdir. Ramazon hayitini nishonlash bizning o'zbek milliy-diniy urf-odatlarimizdan biri. Bu bayramda kishilar chiroyli, toza va pok kiyinib hayitga chiqadilar. Qarindosh-urug'larni, keksalarni hurmat yuzasidan yo'qlab boradilar. Hayit kuniga atab, har xil pishiriqlar tayyorlanadi, qarovchisi yo'q kasallar holidan habar olinadi. Ularga savob yordami ko'rsatiladi. Bolalar, boshqa bayramlar qatori Ramazon hayiti ham qanchalik yaxshi ekan. Shunday emasmi? Chunki bu haytda odamlar bir-biriga mehr-oqibat ko'rsatadilar. Bu eng oliyjanob fazilatlaridan hisoblanadi. Kishilarning bir-birlariga mehr-oqibatli bo'lishiga undovchi "Ramazon hayiti" bizning milliy-diniy bayramimiz ekanligidan faxrlanishimiz lozim.

Bunday ma'lumotdan so'ng bolalarga quyidagi savollar berildi:

Savol: Ramazon hayitida kishilar nimalar qiladilar?

Javob: Bolalar turli-tuman shirinliklar, pishiriqlar tayyorlanishi, toza kiyimlar kiyilishi, bir-birlarining holidan xabar olishlari haqida so'zlab berdilar.

Savol: Ramazon hayiti nimaga o'rgatadi?

Javob: Bolalar bu savolga javob berishda qiynaldilar. Shunda tarbiyachi taklif qildi: Bolalar, kelinglar, birgalikda "O'lkamizda Ramazon hayiti" nomli o'yin o'ynaymiz. Tarbiyachi bolalarga o'yinda ko'maklashdi. O'yinda bolalarning yuqoridagi mavzu bo'yicha olgan bilimlariga tayanildi.

O'yinda qatnashgan bolalar rag'batlantirildi. Mashg'ulot oxirida bolalarning hayit kuni onalariga pishiriqlar pishirishda ko'maklashishi, kiyim-kechaklarini toza saqlashlarini eslatib o'tildi.

Bolalar o'yinda qiziqib ishtirok etdilar. Hayit bayrami Rohilalarning "xonadonida" belgilandi. Rohilaning "buvisi", "bobosi", "onasi", "otasi" bor. Lekin ular alog'ida turishadilar. Rohilalar oilasi arafa kuni hayit bayramiga juda yaxshi tayyorlanishdi. So'ng hayit kuni eng yaxshi "narsalar"dan sumkaga joylashib, "bobosi"ga "yaktak", "qiyiq", "do'ppi", "buvisi"ga ko'ylaylik mato, "ramol" sovg'a tayyorlashadi va ularni ko'rib kelishga, hayit bayrami bilan tabriklashga borishdi.

"Bobosi" bilan "buvisi" ularni quchoq ochib kutib oldilar. Tuzatilgan dasturxon xilma-xil noz-na'matlarga to'la edi. Tog'asi, kelinlari, ularning bolalari bilan to'yib-to'yib gaplashishdi. So'ng lazzatli chuchvara yeyilgach, kechki payt uylariga qaytish uchun ruxsat so'radilar. "Buvisi" va "Bobosi" ularga uzoq umr tilab, oq fотиha berdilar. Rohilalar xayrlashib uylariga jo'nadilar.

Bu o'yin bolalarda juda yaxshi taassurot qoldirdi.

O'yindan so'ng:

- Hammangiz ham buvijonlaringiz va bobojonlaringiz bilan hayitlarda shunday uchrashasizlarmi? – deb so'ralganda, ko'pchilik jo'r ovoz bilan "Ha", deb javob berdilar. Ularning ko'zlarida uchqun porladi. Faqat Dilrabo mayus edi. Sababi uning bobojoni va buvijoni yo'q ekan.

- Sen oying va dadangni yaxshi ko'rsang, faqat hayit kuni emas, balki hamma vaqt ular bilan yaxshi muomala qilasan, kelajakda katta bo'lganingda Rohilalarday ulardan xabar olib tursang, ana shunda yaxshi bo'ladi, deyildi. Dilrabo xursand bo'lib ketdi, sakrab ham qo'ydi.

- Men ham shunday qilaman, - dedi Shahnoza xursand bo'lib.

Bu esa bolalarga biz o'tkazgan tajriba ijobiy ta'sir etganining natijasi edi.

Mazkur tadbirlarni va mashg'ulotlarni uyushtirishda qator pedagogik jihatlarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'lib, bular: milliylik, shakl rangbarangligi va qiziqarliligi, estetik ta'sirchanlik, tadbirlarga ixtiyoriy ravishda qatnashish kabi tamoyillarga ahamiyat berishga e'tibor qaratildi. Lekin bu bilan birga:

- Milliy qadriyatlarning mohiyati, uning tarixi, hozirgi kundagi tarbiyaviy ahamiyatini bilish;

- ota-onalar, tarbiyachilar va keng jamoatchilik o'rtasida buni keng targ'ib-tashviq etish;
- urf-odatlar, an'analarni muntazam ravishda ta'lim-tarbiya tarkibiga kiritish;
- bunda har bir guruh, undagi bolalar va har bir bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olish va hokazo muhim va zurrur bo'ladi.

O'tkazilgan mashg'ulotlardan ko'rinib turibdiki, tarbiyachi xulq madaniyatini tarkib toptirishda milliy qadriyatlardan foydalanish masalalarini hal eta oldi. Dastlabki mashg'ulotda bolalarga, birinchidan, rivojlantiruvchi ta'lim berildi (topishmoq va jumboqlar yesildi); ikkinchidan, bolalar tariximiz bilan yoshiga mos ravishda tanishdilar ("Mehrjon" tarixi); uchinchidan, tabiat go'zalliklaridan bahramand bo'ldi (kuz, qish, sabzavot, mevalar); to'rtinchidan, dehqon mehnatidan bahramand bo'ldi ("Mehrjon" – hosil bayrami, dehqonchilik bayrami) va nihoyat; beshinchidan, butun o'yin davomida ulardagi xulq-atvorni tarkib toptirishga oid hatti-harakatlar kuzatib borildi. Keyingi mashg'ulotda "Beshik to'yi" o'yini asosida qarindoshlar o'rtasidagi mehr-oqibat, jasorat, urf-odatlarimizga, ota-onalarga hurmat-ehtiromni tarbiyalashga erishildi. Uchunchi mashg'ulotda esa bolalar bilan "Ramazon hayiti"ga bog'ishlab suhbat o'tkazildi. Natijada, bolalar milliy marosimlarimiz va bayramlarimiz haqida to'laroq ma'lumot olishga, katta yoshlilarga hurmat va ehtirom ko'rsatish, marhumlarni xotirlash, keksalar va bemorlarga sahovat qilish kabi xislatlarni his etdilar.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning milliy qadriyatlar vositasida xulq madaniyatini shakllantirish bo'yicha o'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari bu boradagi ishlar bir xil emasligini ko'rsatdi. Yuqori darajadagi xulq madaniyatini tarkib toptirishda milliy qadriyatlardan foydalanish uslubiyotini bilgan tajribali tarbiyachilar kiritildi.

O'rta darajaga o'rganilayotgan mavzuga oid qoniqarli bilimga ega, lekin o'z bilimini amaliy jihatdan qo'llashda qiynalgan bolalarda xulq madaniyatini shakllantirish ko'nikma va malakasiga ega bo'lgan tarbiyachilar kiritildi. Past darajaga esa qo'yilgan masalani yaxshi bilmagan, o'z nazariy bilimini, amaliy ko'nikma va malakalarini tajribada qo'llay olmagan, milliy qadriyatlar vositasida xulq madaniyatini shakllantirish malakasiga ega bo'lmagan tarbiyachilar belgilandi. Ta'kidlab o'tish joizki, ish faoliyati davomida pedagogik tajriba-sinov olib borgan tarbiyachilarning deyarli barchasi malaka oshirish kurslaridan o'tkazildi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, bog'chalarda ishlayotgan tarbiyachilarning deyarli 30 foizi o'rta ma'lumotga ega. Bunday jarayonda o'rta ma'lumotli tarbiyachilar bolalarni tarbiyalashda, albatta, ko'zlangan maqsadga erisha olmaydilar. Chunki ularning pedagogika, psixologiya hamda siyosiy va iqtisodiy bilim asoslaridan to'liq bilimga ega emasliklari bolalarni tarbiyalashda qiyinchiliklar tug'diradi.

Pedagogik tajriba-sinov davomida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq madaniyatini shakllantirishga doir pedagogik maslahatlar o'tkazildi. Bog'cha hujjatlari, bolalar faoliyatini tahlil etish, pedagogik kuzatishlar, bolalar, tarbiyachilar, ota-onalar bilan suhbat, so'rov varaqalarining tahlili bilan shug'ullanildi.

Natijada, milliy qadriyatlar vositasida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini shakllantirishga xalaqit berayotgan quyidagi kamchiliklar aniqlandi:

- uslubiy tavsiyalarning yetishmasligi;
- milliy qadriyatlar vositasida maktabgacha tarbiya yoshidagi bollarda xulq madaniyatini shakllantirishga oid milliy o'yinchoqlarning yo'qligi va ularni tayyorlashga shart-sharoitlarning mavjud emasligi;
- milliy qadriyatlar vositasida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini tarbiyalashga doir nazariy bilim, ko'nikma va malakalarning yetishmasligi;
- milliy qadriyatlardan foydalanish yo'llarini to'liq bilmasliklari;
- tarbiyachilarning o'z malakasini izchil oshirib borildi, o'z ishlariga ijodiy yondasha olish yo'llarini bilmasligi.

Bu kamchiliklarni bartaraf etish va maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq madaniyatini shakllantirishda quyidagi pedagogik tajriba-sinov materiallari turkumlashtirildi:

- milliy urf-odatlar va an'analarni mazmuniga ko'ra har bir guruh uchun mavzular mazmunini aniqlash;
- egallangan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar asosida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga xulq madaniyati haqida tushuncha berish, undan amaliy faoliyatda foydalanish;
- o'zlashtirilgan tushunchalar asosida kundalik xulqi faoliyatida muomala madaniyati, salomlashish madaniyati, kattalarni hurmat qilish, o'zini tuta bilishi, nafsini tiya bilishi kabi fazilatlarni tarkib toptirish;

- foydalaniladigan an'analar, udumlar, urf-odatlar bolalar uchun qiziqarli, yoshiga moslarini tanlab, tadbirlar o'tkazishda foydalanish.

1. Mashg'ulotlarni noan'anaviy o'yin shaklida o'tkazish, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning bevosita ishtirok etishiga erishish.

Mazkur talablar asosida maktabgacha tarbiya muassasalari bolalaridaxulq madaniyatini shakllantirish mezonlari quyidagi 8-jadvalda belgilab olindi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatiga doir fazilatlarning rivojlanish darajasi, foizda.

8-jadval

№	Yaxshi xulqlar	Sinov guruhi			Tajriba guruhi		
		Yuqori	O'rta	Past	Yuqori	O'rta	Past
1	Muloyimlik	24	50	60	90	45	10
2	Xushmuomalalik	30	60	40	100	45	10
3	Rostgo'ylik	12	60	80	85	48	15
4	Mehnatsevarlik	17	40	80	85	49	15
5	Mehr-muruvvat	33	60	70	90	45	5

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini shakllantirishda quyidagi 9-jadvalda keltirilgan fazilatlar asosiy mezon qilib olindi:

Xushmuomalalik	Kamtarlik	Yaxshilik
Insoflilik	Saxiylik	To'g'rilik
Vijdonlilik	Mehr-muruvvat	Rostgo'ylik
Adolatlilik	Mehnatsevarlik	Sabotlilik

Shundan so'ng maktabgacha tarbiya muassasalarida xulq madaniyatini tarbiyalash tizimi ishlab chiqildi.

Albatta, bu tizimni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun maktabgacha tarbiya muassasalarida xodimlarning olib boradigan ish yo'nalishlari belgilandi.

Xulq madaniyatini milliy qadriyatlar vositasida shakllantirish bir butun, yaxlit tizim bo'lib, unda bog'cha mudiri, ota-onalarning ishtirok etishi va bunday yondashuvning to'g'riligini biz olib borgan tadqiqot ishi natijalari tasdiqlaydi. Buni maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning milliy qadriyatlar vositasida xulq madaniyatini shakllantirishga doir bilimlarini rivojlantirishda tarbiyachi amalga oshirgan tadbirlar o'z ifodasini topgan quyidagi 9-jadvaldan bilsa bo'ladi.

9-jadval

№	Tanlangan bolalarning familiyasi, ismi	Bolalar faoliyati	Amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbir
---	--	-------------------	--

1	Hayitova B.	Tantanalar va an'analarga	Bolalar qiziqishlarini yanada
2	Rizvonov I.	yaxshi ishtirok etadilar. Berilgan	rivojlantirish va o'rgatilgan
3	Rajabov L.	she'r, ashula, ertakni bajonidil	narsalarni yanada yuqori
4	Rajabova L.	aytib beradilar. Ertakni ijodiy	darajaga ko'tarish; qiziqarli
5	Qandimov U.	hikoya qilib berishni biladilar.	topshiriqlarni berib borish;
6	To'rayeva Z.	Momolar, buvilari aytib bergan	bunga ota-onalarni ham jalb
		rivoyatlardan aytib bera oladilar.	etish va qiziqtirish.
		Ularga qiziqishlari yaxshi.	
1	Tursunova M.	Urf-odatlariga bag'ishlangan	Bolalar bilan alohida-alohida
2	Karimova D.	tantanalarda yaxshi ishtirok	ishlash, ular uchun ko'proq
3	Rasulov J.	etishni xohlaydilar, ammo	qiziqarli ishlarni olib borish;
4	Meyliyeva U.	kuchlari yetmaydi. She'r, ashula	uyda ota-onalarga topshiriq
5	Abdiyev A.	va raqslarni juda sust	bergan holda ular
6	Xo'jaqulova Sh.	o'zlashtirib oladilar. Qiziqish	hamkorligida ishlash.
7	Omonova F.	intilishlari yaxshi, ammo	Bolalarni ko'proq
8	Abduraximova Z.	uddalay olishlari qiyinroq.	tadbirlarning asosiy
9	Boboyeva B.	Bolalarni ijodiy rivojlanishiga	ishtirokchisi sifatida
		xos ertaklarni, aytilgan	tarbiyalash.
		ertaklarni takror aytib bera	
		oladilar.	

Bolalar ikki guruhga bo'linganda yaxshi natijalarga erishildi. Ayniqsa, ikkinchi guruhdagi bolalar bilan bunday ishlar olib borilganida yaxshi natija berdi. Shunday bolalar, asta-sekin o'z kuchlariga ishonch bilan qaradilar. Milliy qadriyatlar vositasida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini shakllantirishda tarbiyachi faoliyatini yuqori darajaga ko'tarish uchun quyidagi talablarga e'tibor qaratildi:

- milliy qadriyatlar bo'lgan ota-bobolarimiz merosini o'rganish;
- xalq og'zaki ijodi, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini shakllantiruvchi g'oyalari bilan tanishish;
- xulq madaniyati tushunchasi, mazmuni-mohiyatini tushuna olish;
- urf-odatlar va an'analarni, ularning tarbiyaviy ahamiyati mohiyatini anglab yetish;
- maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda yaxshi xulqli va madaniyatli bo'lish haqidagi tasavvurlarni rivojlantirib borish;
- xulq madaniyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish va ularni bosqichma-bosqich rivojlantirish.

Shuni aytish joizki, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq madaniyatini shakllantirishda tarbiyachining mashg'ulotdagi mahorati, bilimi, aqli, idroki, tafakkuri, irodasi, his-tuyg'usi, holati, kayfiyati muhim ahamiyatga ega. O'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari biz tavsiya etgan uslublar va vositalar tarbiyachilarga yaqindan yordam berdi. Bog'cha tarbiyachilari bilan birgalikda

mashg'ulotlar uchun dars ishlanmalari tayyorlandi va u amaliyotga tatbiq qilindi. Bunday ishlar tarbiyachilar va bog'cha mudirlariga yordam berdi. Mashg'ulotlardan: "Buvijonlar davramizda", "Mehrjon bayrami", "Navro'zingiz muborak!", "Chaqaloqqa ism qo'yish", "Kelin salom", "Beshik to'yi", "Sog'ligimiz-boyligimiz" va boshqa bir qancha mavzuda bolalar bilan o'tkazilgan tadbirlar va mashg'ulotlar bolalarda mehribonlik, tartib-intizom, muomala madaniyati, turmush madaniyati, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat kabi xislatlarni shakllantirib bordi..

Milliy qadriyatlar vositasida xulq madaniyatini maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda shakllantirish mazmunini quyidagi 10-jadvalda ifodaladik:

10-jadval

Urf-odatlarida	An'analarda	O'yinlar vositasida
O'zini tuta bilish, xushmuomalaligi, rostgo'yligi, barchani hurmat qilish, irodasi	Mehnatda o'zini ko'rsata olishi, intizomni saqlashi, halollik, mehnatsevarlik, sabotlilik	Kamtarlik, saxiylik, o'zaro hurmat, samimiylik, rostgo'ylik

10-jadvaldan ayon bo'ldiki, milliy qadriyatlar vositasida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning xulqida, tevarak atrofga bo'lgan munosabatida, o'yin faoliyati davomida yuqoridagi fazilatlar milliy qadriyatlar vositasida tarkib topa boshladi. Milliy qadriyatlar vositasida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatining shakllanishida tarbiyachi faoliyati natijalarini aniqlash maqsadida pedagogik tajriba-sinov ishlarini amalga oshirgan guruh tarbiyachilari bilan bo'lgan suhbatlarda tarbiyachilar ko'rsatilgan yo'l-yo'riqlarga asoslangan holda, milliy qadriyatlarimiz vositasi bo'lgan urf-odatlar, mavzuiy kechalar, ertaliklar, turli tantanalardan foydalanganlar.

Mahallada o'tkazilgan "Mahallang – baxting", "Bizning mahalla bolalari", "Mahallamiz qizlari", "Mahallamiz pahlavonlari", "Faxriylikka kuzatish" tadbirlarida bolalar ham ishtirok etib kuzatganlar. Bog'chalardagi tantanalarda "Tug'ilgan kun", "Muchal to'yi", "Egizaklar", "Kelib-keting bizning bog'chaga", "Bog'chamizda ko'chat ekdik", "Bog'chamizda echkilarga uy quramiz", "Yer maydonchamizda" tadbirlari bog'chalarda o'tkazilgan. "Mehrjon", "Ramazon", "Qurbon hayiti", "Navro'zi olam", "Ko'pkari", "Biz bu kun bellashamiz", "Beshik keldi", "Chaqaloqqa sochqi" kabi bir qancha tadbirlar milliy urf-odatlarimiz bevosita tarbiyachilar tomonidan tayyorlangan ishlanmalar asosida o'tkazildi. Ularni tayyorlab o'tkazishda "Oila pedagogikasi" [78, 25], "O'zbek udumlari", "Odob chamanzori", "Navro'z va ma'naviyat" [12], "Bolalar bog'chasi dasturi" [37] kabi kitoblar va uslubiy qo'llanmalar tavsiya etildi.

Yuqoridagilarga asoslanib pedagogik tajriba-sinov natijalarini raqamlarda ifodalaganda quyidagi ko'rsatkichlarga ega bo'lindi.

Olingan natijalarni– matematik statistik uslubi yordamida muntazam ravishda ish olib borildi.

11- jadval

Xulq madaniyati mezonlari	Sinov guruhi			Tajriba guruhi		
	Yuqori	O'rta	Past	Yuqori	O'rta	Past
Xushfe'llik, muomala me'yori	20	50	70	50	30	20
Muloyimlik	10	40	50	70	20	10
Intizomlilik	20	40	40	65	25	10
Yurish-turish me'yori	30	25	45	100	5	25
Muloqot madaniyati	10	30	60	75	15	10
Suhbatlashish me'yori	15	55	30	65	30	5
Ovqatlanish me'yori	15	60	25	80	15	5
Kiyinish me'yori	30	50	15	70	18	12

Kuzatish ishlarimizni olib borgan barcha bog'chalarning kuzatish oxirida savollarga bergan javoblarini tahlil qilar ekanmiz, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini shakllantirish borasida olib borilgan ta'lim-tarbiyani quyidagi natijalar asosida tahlil qildik. Kuzatish 20 ta tarbiyalanuvchi bilan o'tkazildi.

12-jadval

Olgan bali	Kuzatish boshida				Kuzatish oxirida			
	Sinov guruhi		Tajriba guruhi		Sinov guruhi		Tajriba guruhi	
	Bolalar soni	Foiz hisobida	Bolalar soni	Foiz hisobida	Bolalar soni	Foiz hisobida	Bolalar soni	Foiz hisobida
“5”	26	26	30	30	30	30	60	60
“4”	32	32	34	34	33	33	30	30
“3”	25	25	22	22	30	30	10	10
“2”	17	17	14	14	7	7	-	-

Olib borilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari maktabgacha tarbiya muassasalarining maktabgacha tarbiya yoshidagi guruhlarida o'tkazilgan mashg'ulotlar jarayonida o'zining samarali natijasini berdi.

Demak, xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq madaniyatini shakllantirishda;

- oddiydan murakkabga, mavhumlikdan aniqlikka o'tish va tarbiyachining ijodkorligi hamda pedagogik mahoratiga tayanish;

- milliy qadriyatlardan foydalanishda mashg'ulotlarning uslub va usullari, vositalarini yaxlit tanlay olish, tanlangan mavzular maqsadi, mazmuni, tarbiyaviy ahamiyati, samarasiga doir bilimga ega bo'lish;

- oila muhiti, xalq teatrlari, madaniyat uylari, havaskorlik va folklor dastalaridan vosita sifatida foydalanish;

- bolalarning kundalik faoliyati – mashg'ulotlar, o'yin va hokazolarni muammo nuqtai nazardan to'g'ri tashkil etish.

Ikkinchi bob bo'yicha qisqacha xulosalar.

1. Bog'cha o'zining barcha tarbiyaviy faoliyatini oiladigi tarbiya jarayoniga izchil yo'naltira olish.

2. Tarbiyachilar jamoasi oila bilan o'zaro hamkorlikda milliy qadriyatlar asosida xulq madaniyatini tarbiyalash talablarini to'g'ri tashkil etish.

3. Mahalla, bog'cha, oila, xalq ta'limi bo'limi, jamoatchilikni tarbiya jarayonida bir maqsadga yo'naltirishi.

4. oila an'analari, udumlari va urf-odatlaridan foydalanishda bog'cha va tarbiyachilar hamda bolalar hamkorligini o'rnatish.

5. An'analar, udumlar, urf-odatlar vositasida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini tarbiyalash samarasi ko'p omillarga bog'liq. Xususan:

- ota-onalar savodxonligiga;
- bolalar uchun shart-sharoitlar yaratib berilishiga;
- oilaviy an'analar udumlar va urf-odatlarga oid tadbirlarni o'tkazib turishlarga;
- oilada katta bo'g'in – bobo va momolar tarbiyasiga;
- oilaning moddiy ta'minlanishiga.

6. Respublika bolalar bog'chalarida xulq madaniyatini shakllantirishda quyidagi shakllardan foydalanish:

- ota-onalar maktabi;
- milliy madaniyatimizni targ'ib-tashviq qiluvchi xalq etnografiyasi maktabi;
- ma'naviy-ma'rifiy kengash qoshida tashkil etilishi lozim bo'lgan ota-onalar maktabi;
- bog'cha qoshida tashkil etilgan xalq etnografiyasi to'garagi;
- teleko'rsatuvlar, radioeshittirishlar, oynomalar.

. Milliy qadriyatlar vositasida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini shakllantirishga xalaqit berayotgan quyidagi kamchiliklar aniqlandi:

- uslubiy tavsiyalarning yetishmasligi;

- milliy qadriyatlar vositasida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini shakllantirishga oid milliy o'yinchoqlarning yo'qligi va ularni tayyorlash shart-sharoitlarning mavjud emasligi;

- milliy qadriyatlar vositasida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini tarbiyalashga doir nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarning yetishmasligi;

- milliy qadriyatlardan foydalanish yo'llarini to'liq bilmasliklari;

- tarbiyachilarning o'z malakasini izchil aniqlab borishlari, o'z ishlariga ijodiy yondasha olish yo'llarini bilmasliklari.

2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xalq madaniyatini shakllantirishda quyidagi pedagogik tajriba-sinov materiallari turkumlashtirildi:

- milliy urf-odatlar va an'analarni mazmuniga ko'ra har bir guruh uchun mavzular mazmunini aniqlash;

- egallangan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar asosida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga xulq madaniyati haqida tushuncha berish, undan amaliy faoliyatda foydalanish;

- o'zlashtirilgan tushunchalar asosida kundalik xulqi faoliyatida muomala madaniyati, salomlashish madaniyati, kattalarni hurmat qilish, o'zini tuta bilishi, nafsini tiya bilishi kabi fazilatlarni tarkib toptirish;

- foydalaniladigan urf-odatlar, an'analarning bolalar uchun qiziqarli, yoshiga moslarini tanlab, tadbirlar o'tkazishda foydalanish.

3. Milliy qadriyatlar vositasida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini shakllantirishda tarbiyachi faoliyatini yuqori darajaga ko'tarish uchun quyidagi talablarga e'tibor qaratildi:

- milliy qadriyatlar bo'lgan ota-bobolarimiz merosini o'rganish;

- xalq og'zaki ijodi, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini shakllantiruvchi g'oyalari bilan tanishish; - xulq madaniyati tushunchasi, mazmuni-mohiyatini tushuna olish;

- urf-odatlar va an'analarni, ularning tarbiyaviy ahamiyati mohiyatini anglab yetish;

- maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda yaxshi xulqli, madaniyatli bo'lish haqidagi tasavvurlarni rivojlantirib borish;

- xulq madaniyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish va ularni bosqichma-bosqich rivojlantirish.

4. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq madaniyatini shakllantirishda;

- oddiydan murakkabga, mavhumlikdan aniqlikka o'tish va tarbiyachining ijodkorligi hamda pedagogik mahoratiga tayanish;

- milliy qadriyatlardan foydalanishda mashg'ulotlarning uslub va usullari, vositalarini yaxlit tanlay olish, tanlangan mavzular maqsadi, mazmuni, tarbiyaviy ahamiyati, samarasiga doir bilimga ega bo'lish;

- oila muhiti, xalq teatrlari, madaniyat uylari, havaskorlik va folklor dastalaridan vosita sifatida foydalanish;- bolalarning kundalik faoliyati – mashg'ulotlar, o'yin va hokazolarni muammo nuqtai nazardan to'g'ri tashkil etish.

XULOSALAR

Istiqlolga erishgan dastlabki kunlardan boshlab, ta'lim tizimini isloh qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan deb qaralmoqda. Bu islohotlarni amalga oshirishning asosiy negizi sifatida milliy va umuminsoniy qadriyatlardan foydalanish, uni ta'lim-tarbiya iste'moliga kiritish yotadi. Chunki jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida ta'lim-tarbiya mazmuni, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'un holda rivojlangan. Bu tamoyil bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Demak, yosh avlod tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'ziga xos ahamiyatga ega.

Ayniqsa, yosh avlodda xulq madaniyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarimiz muhim ahamiyatga ega. Dunyoga yuz tutayotgan O'zbekiston Respublikasining taraqqiyoti bugungi kunda bilimli, madaniyatli, salohiyatli fuqaroni shakllantirishga bog'liq. Shunday ekan yosh avlod tarbiyasida, ularning, eng avvalo, ma'naviy-ma'rifiy shakllanishiga bog'liq. Lekin bolalarning har tomonlama kamol topishi uzluksiz bo'lib, oiladan, bog'cha yoshidan boshlanadi.

Insonga, uning shaxsiga baho berish, tarbiyalashda uning ijobiy yoki salbiy sifatlariga nisbat berish Sharq pedagogikasiga xos xususiyatlardan biri. Bunga "Avesto"dan tortib to "Turkiy guliston yoxud axloq" gacha bo'lgan ta'limiy-axloqiy asarlarda ijobiy va salbiy sifatlar majmuasining sharhlanishida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Ana shunday boy, sanalgan pedagogik madaniyatga ega xalqimiz, o'z tarbiya tizimiga, mazmuniga, uslub va usullariga ega.

Milliy tarbiya O'zbekiston Milliy mustaqilligini mastahkamlash va amalga oshirishga tayyor bo'lgan farzdlarni tarbiyalab yetishtirishga xizmat qiladi. Bu borada maktabgacha tarbiya muassasalari oldida muhim va dolzarb muammolar turibdi.

Ana shu muammolarni hal etishda urf-odatlarimiz va an'analarimizdan foydalanish samarali natija beradi. Har bir xalqning o'ziga xos udumlari va urf-odatlari asrlar davomida shakllangan bo'lib, ular ana shu xalq hayotiga singib ketgan. O'zbek xalqining urf-odatlari alohida diqqatga sazovor bo'lib, o'zidan kattalarni, keksalarni, ustozlarni, ota-ona va aka-opalarni hurmat qilish, bolajonlik, mehmondo'stlik, mehnatsevarlik, tabiat va uning boyliklarini e'zozlash kabi odatlarimiz borki, ularni faqat maktablarda emas, bog'chalarda ham tatbiq etish muhim ahamiyatga ega.

Yosh avlodga ana shu milliy qadriyatlarni singdirish xulq madaniyatini tarkib toptiradi. Xulq madaniyati ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lib, bog'cha va tarbiyaning muhim tarkibiy qismini shakllantirishda asos bo'ladi. Maktabgacha yoshda shakllangan xulq-odob me'yorlariga rioya etish, his-tuyg'u va ma'naviy ong insonning butun kelgusi faoliyatiga ta'sir etadi va umri davomida hal etuvchi rol o'ynaydi. Chunki maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning psixologik-fiziologik xususiyatlari xulq-odob madaniyatini shakllantirishda qulay davr sanaladi. Maktabgacha tarbiya yoshida, ayniqsa, maktabgacha katta yoshdagi bolalar, o'ta idrokliligi, fahmi tezligi, zukkoligi bilan ajralib turadi. Bu xususiyat ularda atrofdagi voqyea-hodisalarga faol munosabatda bo'lish qobiliyati, idrok qiladigan narsalariga his-tuyg'u, diqqat-e'tibor bilan qarashi, taqlid qilishi va tasavvur etish jarayonida shakllana boradi. Shuning uchun bu davrda bolaning muomala ehtiyojini ijtimoiy ehtiyojga aylantirish yaxshi natija beradi.

Bu tarbiyaviy ta'sir pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilgandagina muvaffaqiyatli chiqadi.

Bu jarayon quyidagi holatlarda amalga oshiriladi:

- faoliyat jarayonida;
- o'zaro muomala jarayonida;
- maishiy turmush tarzida.

Bu faoliyat mehnat, o'yin va bevosita mashg'ulotlarda tarkib topadi.

1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlardan foydalanish.

2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini shakllantirishda milliy an'analar, urf-odatlar, udumlar va rasm-rusamlardan foydalanish.

3. Maktabgacha tarbiya muassasalarida xalq o'yinlaridan ko'proq foydalanish.

4. O'zbek xalqining an'analari, urf-odatlari, udumlari, rasm-rusumlariga oid to'plam chop etish, bunda, ayniqsa, maktabgacha tarbiya bilan shug'ullanuvchi mutaxassis olimlar faoliyat ko'rsatishsa, maqsadga muvofiq.

5. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini o'yinchoqlar vositasida tarbiyalash.

6. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini mashg'ulotdan tashqari ishlar vositasida shakllantirish.

7. Bog'cha o'zining barcha tarbiyaviy faoliyatini oiladigi tarbiya jarayoniga izchil yo'naltira olish.

8. Tarbiyachilar jamoasi oila bilan o'zaro hamkorlikda milliy qadriyatlar asosida xulq madaniyatini tarbiyalash talablarini to'g'ri tashkil etish.

9. Mahalla, bog'cha, oila, xalq ta'limi bo'limi, jamoatchilikni tarbiya jarayonida bir maqsadga yo'naltirishi.

10. oila an'analari, udumlari va urf-odatlaridan foydalanishda bog'cha va tarbiyachilar hamda bolalar hamkorligini o'rnatish.

11. An'analar, udumlar, urf-odatlar vositasida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini tarbiyalash samarasi ko'p omillarga bog'liq. Xususan:

- ota-onalar savodxonligiga;
- bolalar uchun shart-sharoitlar yaratib berilishiga;
- oilaviy an'analar udumlar va urf-odatlarga oid tadbirlarni o'tkazib turishlarga;
- oilada katta bo'g'in – bobo va momolar tarbiyasiga;
- oilaning moddiy ta'minlanishiga.

12. Respublika bolalar bog'chalarida xulq madaniyatini shakllantirishda quyidagi shakllardan foydalanish:

13. Milliy qadriyatlar vositasida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini shakllantirishga xalaqit berayotgan quyidagi kamchiliklar aniqlandi:

- uslubiy tavsiyalarning yetishmasligi;
- milliy qadriyatlar vositasida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini shakllantirishga oid milliy o'yinchoqlarning yo'qligi va ularni tayyorlash shart-sharoitlarning mavjud emasligi;
- milliy qadriyatlar vositasida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini tarbiyalashga doir nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarning yetishmasligi;
- milliy qadriyatlardan foydalanish yo'llarini to'liq bilmasliklari;
- tarbiyachilarning o'z malakasini izchil aniqlab borishlari, o'z ishlariga ijodiy yondasha olish yo'llarini bilmasliklari.

14. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda milliy qadriyatlar vositasida xulq madaniyatini shakllantirishda quyidagi pedagogik tajriba-sinov materiallari turkumlashtirildi:

- milliy urf-odatlar va an'analarni mazmuniga ko'ra har bir guruh uchun mavzular mazmunini aniqlash;

- egallangan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar asosida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga xulq madaniyati haqida tushuncha berish, undan amaliy faoliyatda foydalanish;

- o'zlashtirilgan tushunchalar asosida kundalik xulqi faoliyatida muomala madaniyati, salomlashish madaniyati, kattalarni hurmat qilish, o'zini tuta bilishi, nafsini tiya bilishi kabi fazilatlarni tarkib toptirish;


- foydalaniladigan urf-odatlar, an'analarning bolalar uchun qiziqarli, yoshiga moslarini tanlab, tadbirlar o'tkazishda foydalanish.

15. Milliy qadriyatlar vositasida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini shakllantirishda tarbiyachi faoliyatini yuqori darajaga ko'tarish uchun quyidagi talablarga e'tibor qaratildi:

- milliy qadriyatlar bo'lgan ota-bobolarimiz merosini o'rganish;
- xalq og'zaki ijodi, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xulq madaniyatini shakllantiruvchi g'oyalari bilan tanishish;
- xulq madaniyati tushunchasi, mazmuni-mohiyatini tushuna olish;
- urf-odatlar va an'analarni, ularning tarbiyaviy ahamiyati mohiyatini anglab yetish;
- maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda yaxshi xulqli, madaniyatli bo'lish haqidagi tasavvurlarni rivojlantirib borish;

ILOVALAR.

1-jadval



2-jadval

Urf-odatlarda	An'analarda	O'yin davomida
O'zini tuta bilish, xushmuomalalik, rost-go'ylik, samimiylilik, ochiq chehra, barchani hurmat qila bilish	Mehnatda iroda kuchi, o'zining va mehnatning qadriga yeta olish, tengqurlariga yordamini ayamaslik, chaqqonlik, intizomni saqlash, halolik	Boshqalar bilan muomalada kamtarlik, saxiylik, shirinso'zlik

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” .T.: “O’zbekiston” 2008 yil.
2. .Karimov I “O’zbekiston mustaqillikka erishi ostonasida”. Tosh. “O’zbekiston”. 2011y. - 440 b.
3. Karimov I. “Barkamol avlod” O’zbekiston taraqqiyotining poydevori.Tosh. “Sharq”. – 1997 y – 64 b.
4. O’zbekiston Respublikasining “Bola xuquqlari kafolatlari to’g’risida”gi konun T. O’zbekiston. 2004 y.
5. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni T.: O’zbekiston. 1979 y.
6. O’zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qonuni., T.: O’zbekiston. 1997 y.
7. O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining amaldagi qaror va buyruqlari. (2010-2012 y.y.)
8. O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim vaziligi Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan Davlat talablari. Tosh. 2012 y. - 76 b.
9. Oliy ta’lim. Me’yoriy huquqiy va uslubiy xujjatlar to’plami. Tosh. “Istiqlol”, 2004 y.512 b.
- 10.Oliy ta’lim muassasasining odob - axloq qoidalari. Tosh.O’z.Rep.OO’MTV. 2011 y. – 12 b.
- 11.O’zbekiston Davlat Standarti Oliy ta’lim. 514170 – “Maktabgacha ta’lim va bolalar sporti” talabalari., T. 2008 y.
12. “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash-Mamlakatni barqaror taraqqiyot ettirish va modernizasiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi Xalqaro konferensiyaning yakuniy xujjati – Rezolyusiyasi va maqolalari. “Milliy tiklanish” gazetasi. 22.02.2012 y. - 1- 6 betlar.
- 13.Maxsus pedagogika. Po’latov P.I. T.: G’.G’ulom. 2005..
- 14.Pedagogik maxorat asoslari. Muhammadova Z. T.: TNB kitob. 2009.
- 15.Xikmatlar to’la bu dunyo. Irisov A. T.: “O’qituvchi”. 1997.

- 16.Yoshlarni ma'anviy tarbiyasi. (darslik). Ergashev Q. T.: Ma'naviyat nashriyoti. 1999.
- 17.G'ulomov A.K. Nutq o'stirish mashg'ulotlari. (o'quv qo'llanma). T.: "O'qituvchi". 1995. 160 bet.
- 18.Hasanov R. Tasviriy san'at o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlar. T.: 2006. 71 bet.
- 19.Hasanov R.Maktabda tasviriy san'at o'qitish metodikasi. (darslik). T.: 2004. 250 bet.
- 20.Rahmonqulova N., Matnazarova O'.Pedagogika nazariyasi va tarixi (o'quv qo'llanma). T.: "O'zbekiston Respublikasi faylasuflari milliy jamg'armasi". 2010. 116 bet..
- 21.Hasanboyev J va boshqalar.Pedagogika. (Pedagogika nazariyasi va tarixi). (darslik). T.: 2011. 456 bet.
- 22.Pedagogika tarixi. (darslik). Hoshimov K. T.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy k/si. 304 bet.
- 23.Po'latova R.M. Maxsus pedagogika. Oligofrenopedagogika. (darslik). T.: G'.G'ulom nomidagi tabaa uyi. 2005. 224 bet.
- 24.Zunnunova A va boshqalar. Pedagogika tarixi. (darslik). T.Sharq. 2000.
- 25.Ta'limimiz istiqlol yo'lida. Yo'ldoshev J. T.: Sharq. 1996. 224 bet.
- 26.Xoshimov K., Nishonova S. Inomova M. va boshqalar. Pedagogika tarixi. (o'quv qo'llanma). T.: "O'qituvchi". 1996. 488 bet.
- 27.Hasanboyev J., To'raqulov X., Alqarov I va boshqalar.Pedagogika. (Pedagogika nazariyasi va tarixi). (darslik). T.: Fan va texnologiya. 2010.
- 28.O'zbekiston pedagogikasi tarixi (o'quv qo'llanma). Respublika Fan va texnologiya davlat qo'mitasi. T.: "O'qituvchi". 1997. 272 bet.
- 29.Azizxo'jayev N.N. Pedagogika tarixi va pedagogik maxorat. (o'quv qo'llanma). T.: 2003. 146 bet.
- 30.Ochilov M., Ochilov N.Oliy maktab pedagogikasi. (daslik). T.: Aloqachi. 2008.
- 31.Qurbonov Sh.Oliy ta'lim tizimiyda boshqaruv kadrlarni tayyorlash. T.: "Akademiya". 2002. 30 bet.

32. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. (o'quv qo'llanma). T.: Nizomiy TDPU. 2003. 146 bet.
33. Asqarova O'.. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar masalalari. O'quv –uslubiy qo'llama. T.: “Istiqlol” nashriyoti. 2005y. 112b.
34. Ahmedova M.E.. Pedagogik nazariyasi va tarixi (Pedagogika tarixi). T.: Tafakkur –bo'ston. 2011 yil. 1228b. Adadi-500.
35. Interfaol ta'lim sifat kamoloti (Bolaga do'stona munosabatdagi ta'lim). Yo'ldoshev J.G'., Yo'ldoshev F. T.: 2008. 148 bet.
36. Ziyomuhammadov B.. Pedagogik mahorat asoslari. T.: TIVKIIOV. 2009y. 183b Adadi-100.
37. Zunnunov A.. Pedagogika nazariyasi. O'quv qo'llanma. T.: Aloqachi. 2006 y. 163b.
38. Yo'ldoshev J.G'.. S.A. Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. Qo'llanma. T.: O'qituvchi. 2004y. 104b.
39. Ibragimov X. va boshqalar. Pedagogika nazariyasi. Darslik. T.: fan va texnologiya. 2006y. 288b.
40. Niyazov G.. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlar. N.: Noxish. 2011y. 140b. Adadi-500.
41. Pedagogicheskiy slovar spravosnik. T.: 2011y. 704s. Tiraj-100.
42. Pedagogika fanning barkamol avlodni shakllantirishdagi o'rni. (4-qism) T.: Sangzor. 2003y. 116b.
43. Ziyomammedov O., M. Tojiyev. Pedagogika texnologiya. O'z.R. Oliy va O'TI kasb. – XT.rivojlantirish markazi. T.: OO'MKHTRM. 2009y. QII. Pedagogik texnologiya Zamonaviy O'zbek milliy modeli. 104b .Adadi-300.
44. Safarov O. Oila ma'naviyati. T.: Ma'naviyat. 2009y.
45. To'raqulov X.A. va boshqalar. Talabalar ma'naviy –axloqiy tarbiyasi va uning axborot –kommunikasion texnologiyasi. T.: fan va texnologiya. 2009y. 116b.
46. S.Ochil. K.Xoshimov. O'zbek pedagogikasini antologiyasi. (2-jald). T.: O'qituvchi. 1999y. 480b.